

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 47 (1646), 2026-yil 11-mart, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI UCHUN MUHANDIS KADRLAR TAYYORLASHDA YANGICHA YONDASHUV

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-mart kuni qishloq va suv xo‘jaligi uchun muhandis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Ko‘p sohalarda ilm real hayotdan uzoqlashib ketgani, qishloq va suv xo‘jaligida ham ayrim yirik loyihalarni amalga oshirishda ilmiy asoslash va ekspertizaga yetarlicha e‘tibor qaratilmayotgani, olimlar hamda tadqiqotchilarning salohiyatidan to‘liq foydalanilmayotgani qayd etildi. Natijada ba‘zi loyihalar kutilgan samarani bermayotgani ta‘kidlandi.

Hozirgi kunda “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti” milliy tadqiqot universitetida 11 mingdan ortiq talaba tahsil olmoqda, 7 ta fakultet, 37 ta kafedra va 38 ta ta‘lim yo‘nalishi faoliyat yuritmoqda. Bitiruvchilarning bandlik darajasi 93 foizni tashkil etadi. Universitetda xorijlik talabalar va professor-o‘qituvchilarning soni ham izchil oshib bormoqda.

Shu bilan birga, muhandis kadrlarni tayyorlashda nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta‘minlash maqsadida dual ta‘lim tizimini keng joriy etish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Taklif etilgan yangi tizimga ko‘ra, talabalar 4 kun nazariy bilim oladi, 2 kun ishlab chiqarish

korxonalarida haq to‘lanadigan amaliyot o‘tadi. Jumladan, suv xo‘jaligi yo‘nalishida suvni tejash va sug‘orishni samarali tashkil etish, gidrotexnika hamda gidroenergetika sohasida kanallarni betonlash, smeta tuzish va kichik gidroelektr stansiyalar qurilishida ishtirok etish, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash yo‘nalishida texnikalarni tayyorlash va hosilni yig‘ishtirish ishlarida qatnashish imkoniyati yaratiladi.

Mamlakatimiz suv resurslarining katta qismi transchegaraviy manbalarga bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bois, suv resurslari sohasida diplomat kadrlarni tayyorlash muhim strategik vazifalardan biri ekan ta‘kidlandi.

Universitetda tashkil etilgan “Xalqaro suv diplomatiyasi” magistratura dasturini kengaytirish va davlat granti asosidagi qabul o‘rinlarini ko‘paytirish taklifi ma‘qullandi. Bu dastur orqali qo‘shni davlatlar uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ko‘zda tutilgan.

Taqdimotda universitetning ilmiy-innovatsion salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan yangi tashabbuslar ham ma‘lum

qilindi. Xususan, dronlardan foydalanib, ekin maydonlarini monitoring qilish, hosildorlikni prognozlashtirish, zararkunandalarga qarshi kurashish kabi xizmatlarni, kosmik monitoring ma‘lumotlari asosida ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan.

Shu maqsadda universitetda dronlarni boshqarishga o‘qitish kurslari joriy etiladi, kosmik tadqiqotlar va sun‘iy yo‘ldoshlar laboratoriyasi, kompleks ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari tashkil etiladi.

Bundan tashqari, universitetda raqamli boshqaruv va KPI tizimlarini joriy etish, ta‘limning uzluksiz “maktab — texnikum — universitet — ishlab chiqarish” zanjiri asosida kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish bo‘yicha rejalar ham ma‘lum qilindi.

Taqdimot yuksalida davlatimiz rahbari qishloq va suv xo‘jaligi sohalari uchun muhandis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta‘minlash hamda ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

NEFT-GAZ SOHASIDAGI ISHLAR SAMARADORLIGI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga neft va gaz sohasida belgilangan vazifalar ijrosining holati yuzasidan hisobot berildi.

Ma‘lumki, joriy yilning 30-yanvar kuni “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati faoliyati samaradorligini oshirish, uglevodorod zaxiralarni kengaytirish va tarmoqni zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi. 23-fevral kuni esa ushbu topshiriqlarning dastlabki ijrosi ko‘rib chiqilib, qator qo‘shimcha topshiriqlar berilgan edi.

Bu galgi taqdimotda mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayoni yana bir bor tahlil qilindi.

Neft va gaz sohasida geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish, yangi konlarni aniqlash, mavjud quduqlar samaradorligini oshirish va qazib chiqarish hajmini barqarorlashtirishga alohida o‘xtalib o‘tiladi.

Bu borada soha rahbarlarining joriy yil boshidan 3D seysmik qidiruv ishlari 471 kvadrat kilometr hajmda amalga oshirilgani, 11 ta yangi quduq ishga tushirilgani, 20 ta quduqda ta‘mirlash ishlari bajarilgani va 5 ta texnologik tadbir amalga oshirilgani to‘g‘risidagi ma‘lumoti ko‘rib chiqildi.

Shu bilan birga, sohada operatsion samaradorlikni oshirish, korxonalarining xarajatlarini maqbullashtirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo‘yicha ishlarga alohida e‘tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari belgilangan vazifalar va rejalashtirilgan chora-tadbirlar ijrosini aniq hisob-kitob va qat‘iy intizom asosida ta‘minlashni davom ettirish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

O‘ZA

QASHQADARYO VILOYATINI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA QO‘SHIMCHA VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryo viloyatida islohotlar natijadorligi hamda kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Qashqadaryo o‘zining katta hududi, boy tabiiy resurslari, rivojlangan sanoati, mehnatkash va tadbirkor xalqi bilan ulkan salohiyatga ega ekan ta‘kidlandi.

O‘tgan yili yalpi hududiy mahsulotda 6,8 foiz, sanoatda 7,2 foiz, xizmatlar sohasida 13,6 foiz, qishloq xo‘jaligida 4,3 foizlik o‘shish qayd etildi. 2017-2025-yillarda aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi 3,2 barobar o‘shib, 26,9 million so‘mga yetdi. Ihsizlik va kambag‘allik darajasi tegishli ravishda 4,9 va 6,5 foizgacha tushdi.

2026-yilda iqtisodiyot tarmoqlarida yangi loyihalarni amalga oshirish hisobidan sanoatda 8,6 foizlik o‘shishni ta‘minlash, 3,5 milliard dollar investitsiya hisobiga 727 million dollarlik mahsulot eksport qilish rejalashtirilgani qayd etildi. Natijada viloyat iqtisodiyoti 8,2 foizga, xizmatlar 15,9 foizga, qurilish 13,2 foizga, qishloq xo‘jaligi 5,8 foizga o‘shishi kutilmoqda. Sanoatda 1,7 milliard dollarlik 195 ta loyihani ishga tushirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda mikrosoat markazlari tashkil etish orqali tarmoqlarda yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash zarurligi qayd etildi.

Viloyatda qator yirik sanoat loyihalarini amalga oshirish rejalarini haqida axborot berildi. Jumladan, mato, kiyim-kechak va gigiyenik vositalar, qishloq xo‘jaligi texnikasi va uskunalar, elektr avtomobillari uchun quvvatlash stansiyalari, fibrosetim panellar va devor plitalarini ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Muborak maxsus innovatsion sanoat zonasini va Qarshi yashil texnologiyalar sanoat zonasini tashkil etib, 2026-2027-yillarda ularda 1,1 milliard dollardan ziyod bo‘lgan 36 ta loyihani amalga oshirish va 6 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratish rejalashtirilgan.

Yangi yondashuvlar asosida mahallalarni chuqur va o‘rta ixtisoslashtirish, imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish hisobiga kambag‘allikni qisqartirish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi. Xususan, mahallalarda 820 milliard so‘mlik kreditlar, 52,3 milliard so‘mlik ssuda va subsidiyalar ajratish, o‘zini o‘zi band qilganlarni qo‘llab-quvvatlash orqali 48 mingta tadbirkorlik subyekti tashkil etiladi, 31 mingta mikroloyiha amalga oshiriladi.

Natijada 2026-yil yakuniga qadar ihsizlikni 3,2 foizga, kambag‘allikni 3 foizga tushirish, bunda G‘uzor, Qamashi, Ko‘kdala, Mirshkor, Shahrisabz va Yakkabog‘ tumanlarini kambag‘allik hamda ihsizlikdan xoli hududga aylantirish maqsad qilingan.

Dunyoda go‘sh tarmoqlari oshib borayotgan hozirgi sharoitda viloyatda chorvachilik va ozuqa bazasini mustahkamlash, yaylov yerlaridan unumli foydalanish bo‘yicha yangi tizim joriy etilayotgani ta‘kidlandi.

Bunda 2030-yilgacha 200 ming gektar, shu jumladan, 2026-yilda 15 ming gektar yerni o‘zlashtirish, infratuzilma bilan ta‘minlash orqali ozuqa ekinlari, kartoshka, sabzavot, dukkakli va moyli o‘simliklar yetishtirish hajmlarini oshirish vazifasi qo‘yildi.

Joriy yilda g‘alla hosildorligini o‘rtacha 84,8 sentnerga, paxta hosildorligini 47,5 sentnerga, kartoshka hosildorligini 175 sentnergacha oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, 48 ta g‘alla kombayni, 272 ta chigit ekish seyyakasini xarid qilish, suv tejavchi texnologiyalar va zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobiga qishloq xo‘jaligida daromadni 20-35 foizga oshirish imkonini mavjudligi ko‘rsatildi.

Suv ta‘minoti Qashqadaryo uchun eng og‘ir masalalardan ekan qayd etildi.

Ekinlarning katta qismi nasos orqali sug‘orilishi sharoitida 2026-yilda 320 kilometr magistral va 3,3 ming kilometr ichki kanallarni betonlash, 70,6 ming gektarda suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish, 27,4 ming gektarda lazerli tekislash ishlarini amalga oshirish hamda 16 ta nasos stansiyasini modernizatsiya qilish vazifalari belgilandi. Bu orqali 800 million kub metr gacha suv iqtisod qilinishi kutilmoqda.

Ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash maqsadida Hisorak suv omboridan Qarshi shahriga suv tortish loyihasi ishlab chiqilayotgani ma‘lum qilindi. Ushbu loyiha doirasida 16 ta ichimlik suvi inshooti va 416 kilometr tarmoq quriladi. Qarshi va Shahrisabz shaharlari, Dehqonobod va Qamashi tumanlaridagi kanalizatsiya tarmoqlari rekonstruksiya qilinadi.

Turizm salohiyatini to‘liq ishga solish bo‘yicha yiliga 1 million sayyohni jalb qilayotgan Miraki shaharchasi tajribasi asosida

yangi loyihalarni qolgan tumanlarda ham kengaytirish zarurligi ta‘kidlandi.

Qamashi tumanida “Maydanak” baland tog‘ turizm markazini tashkil etish, Shahrisabz tumanida bir vaqtning o‘zida 13 ming sayohatchiga xizmat ko‘rsatadigan “G‘elon” xalqaro umummavsumiy kurortini barpo etish, Yakkabog‘ tumani Tatar qishlog‘ida turizmni rivojlantirish, Hazratli Sulton cho‘qqisi hududida trekking yo‘nalishlari va chodirli uylar oromgohini tashkil etish loyihalarini shular jumlasidan.

Umuman, joriy yilda 45 ta mehmonxona va mehmon uyi tashkil etilib, qo‘shimcha 1130 o‘rin yaratilishi belgilandi.

Viloyatda yo‘l, uy-joy va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha ham aniq dasturlar muhokama qilindi. “Yangi O‘zbekiston” qiyofasidagi 2 ta tuman va 46 ta mahallada, shuningdek, og‘ir toifadagi 3 ta tuman va 108 ta mahallada ichki yo‘llar, suv ta‘minoti, sug‘orish infratuzilmasi hamda elektr tarmoqlarini yaxshilash uchun jami 864 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi belgilandi.

Ijtimoiy yo‘nalishda oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatkichlar belgilandi. Jumladan, yangi davlat va xususiy bog‘cha, maktablar tashkil etish, 120 ming nafar xotin-qizning bandligini ta‘minlash, 21,1 ming nafarini kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, “Ayollar haftasi” orqali 102 ming nafariga yordam ko‘rsatish choralarini nazarda tutilgan.

Germaniya bilan hamkorlikda tartibli mehnat migratsiyasi va kasbiy tayyorgarlik bo‘yicha yangi tashabbuslar taqdim etildi. 2026-yilda 3000 nafar, 2027-yilda 5000 nafar yoshni Germaniyaga ishga yo‘naltirish, ularni o‘qitish uchun Qarshi shahrida Ta‘lim va texnologiyalar markazini ochish rejalashtirilgan.

Yig‘ilish yakunida davlatimiz rahbari belgilangan vazifalar ijrosini qat‘iy nazoratga olish, investitsiya va eksport ko‘rsatkichlarini ta‘minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholi turmush darajasini oshirish bo‘yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

O‘ZA



Dunyo tamadduni — insoniyatning ming yillar davomida shakllangan madaniy, ilmiy, ijtimoiy va texnologik taraqqiyotining yaxlit majmuasi. Har bir davr insoniyat tafakkurida burilish yasagan, taraqqiyotning yangi mezonlarini belgilagan. Tarixiy haqiqat shuki, jahon sivilizatsiyasi rivojida qadim Turon alohida o‘rin tutadi. Bizning diyor minglab allomalarni yetishtirgan, ilm-fan, tibbiyot, falsafa, astronomiya, me‘morlik va davlat boshqaruvi sohalarda insoniyat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk mutafakkirlarni dunyoga bergan.

BUYUK ISLOHOTLAR — UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT UYG‘UNLIGI

Bugun ana shu tarixiy meros zamonaviy taraqqiyot g‘oyasi bilan uyg‘unlashmoqda. Mamlakatimiz yetakchisi Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi nafaqat siyosiy-iqtisodiy islohotlar dasturi, balki milliy taraqqiyotning yangi falsafasidir. Bu bilan dunyo tamaddunining rivojlanish nuqtasi yana qadim Turonga — aynan O‘zbekistonga qaytmog‘da deysiz mumkin. Chunki davlatimiz rahbari yuritayotgan siyosat markazida

inson qadri, adolat, qonuniylik va ochiqlik tamoyillari turibdi. Eng muhimi, ortga qaytmas xususiyat kasb etgan bu islohotlar tizimi, izchil va uzoq istiqbolga qaratilgan.

Tarixdan ma‘lumki, davlatlar taraqqiyotida hal qiluvchi davrlar bo‘ladi. Ularning ahamiyati yillar yoki raqamlar bilan emas, balki jamiyat hayotida yuz bergan tub burilishlar bilan o‘lchanadi. Chinakam yetakchining siyosiy irodasi, tashabbuskorligi va mas‘uliyati ana shunday davrlarni vujudga keltiradi. Shu

nuqtai nazardan qaraganda, O‘zbekistonning so‘nggi o‘n yillik taraqqiyotini faqat statistik ko‘rsatkichlar bilan baholash yetarli emas. Bu — milliy davlatchilik tafakkuri yangilangan, fuqarolik jamiyati institutlari mustahkamlangan, iqtisodiy erkinlik va tadbirkorlik muhiti kengaygan, tashqi siyosatda ochiq va pragmatik yo‘nalish qator topgan davrdir.

Davomi 3-beta



Bahorgi tengkunlik, yangi ziroatchilik yili boshlanishini anglatuvchi Navro‘z bayramining tarixi ayrim manbalarga ko‘ra, 25 arsdan ortiq. U qachon, qanday vujudga kelganidan qat‘i nazar, har tomonlama ilmiy asoslanib, koinot va tabiat qonuniyatlarini hisobga olingan holda yaratilgan. Chunonchi, quyoshning hamal burjiga kirishi, kunduzning uzaya boshlashi, yorug‘likning kuchayishi, tabiatning jonlanishi Navro‘z deb qabul qilingan.

Bahor — fasllar malikasi, kelinchagi, suluvi va go‘zali! Olaning barcha ranglarini faqat ko‘klamda ko‘ramiz. Tabiat uyg‘onib, gul-chechaklar ochilib, atrof-tevarak yashil libosga burkangan bir pallada yurtemiz bo‘ylab o‘zgacha shukuh kezadi. Tinchlik-omonlik hukm surayotgan vatanimizning har go‘shasida sharqona yilboshi — Navro‘z keng nishonlanadi: karnay-surnay ovozlar, shodon yalla-yu laparlari, bolajonlarning sho‘x kulgusi yaqin-yiroqlardan eshitilib, ko‘ngillarga ko‘klam nashidasini indiradi. Shu tariqa xalqimizning qadimiy urf-odatlarini, milliy an‘analari qayta jonlanadi, yangicha qiyofa kasb etadi. Qolaversa, azaliy qadriyatlarimiz kelajak avlodlar ong-u shuuriga singib boradi.

Davomi 2-beta



Shukuh

NAVRO'Z – QADR, ADOLAT VA BAG'RIKENGLIK AYYOMI



Boshlanishi 1-betda

Xalqimiz bu kuni nishonlashga azaldan alohida tayyorgarlik ko'radi. O'tgan hafta davlatimiz rahbari imzolagan "2026-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qaror ham yurdoshlarimiz orziqib kutayotgan uyg'unlashuv asosiy shart-sharoitlari ko'tarilgan ruhda nishonlanishidan darak beradi.

Mamlakatimizdagi ulkan o'zgarish va yangilanishlar jarayoniga uyg'un va hamohang tarzda yuksak saviyada o'tkazishga har qachongidan ham o'zgacha shukuhda tayyorgarlikni boshlab bergan hujjatga ko'ra, bu yil bahor ayyomi "Navro'zni ulug'lash — insonni ulug'lashdir!" degan ega g'oyaga esh tarzda o'tadi.

Nima uchun tantanalar ruhini belgilashga "Navro'zni ulug'lash — insonni ulug'lashdir!" shiori bosh g'oya sifatida tanlandi? Yurtimizda inson qadri, huquq va manfaatlarini ta'minlash, xalqimiz farovonligini oshirish, jamiyatda tinchlik, do'stlik va hamjihatlik muhitini, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash yo'lida ulkan qadamlar tashlanmoqda. Bularning barchasi qadimiy tarix va an'analarga ega sharqona yangi yil — Navro'zi olamning insonparvarlik mohiyati, uning bag'rikenglik, saxovat va mehr-oqibat kabi azaliy qadriyatlarini ahamiyatini yanada yuksaltirmoqda.

Aholi manfaatlarini va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, jamiyatning hech bir a'zosini mehr va e'tibordan chetda qoldirmaslik, shahar va qishloqlarimizni obod qilish, yer va suv resurslaridan, barcha tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish, joylarda ahillik, totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash ustuvor

vazifamizga aylanmoqda. Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida nishonlanadigan bu yilgi Navro'z shodiyonalari shu bois, yangicha ruh va mazmun kasb etadi.

Xalqimiz asriy orzulari va davrlar sinovidan o'tgan odamiylik, mehr-oqibat, xayr-saxovat kabi fazilatlarini, shuningdek, bag'rikenglik, ahillik, o'zaro hurmat singari milliy qadriyatlarini ushbu bayram sayillariga singdirib yuborgan, — deydi Olmazor tumanidagi "Xastimom" mahalla fuqarolar yig'ini raisi, II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni sohibi Sanoat Yahyoyeva. — Mustaqillikdan keyin qayta tug'ilgan Navro'z ham barcha qadimiy qadriyatlarimiz qatori hech nishonlanadigan bo'ldi. Bu bayram yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillari bilan birgalikda tantana qilinadi. Dunyo siyosiy xaritasi turli tahlikalardan titrayotgan bir pallada jonajon O'zbekistonimizda barcha millat vakillari tomonidan turli tillardagi kuy va qo'shiqlarning yangirashi — tinchlik va oyoqshilik mevasi.



Bugun respublikamizda 150 dan ziyod milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Markazlarning tashabbusi bilan Navro'z sayillari tashkil etilmoqda. Har bir milliy madaniy markaz o'z an'analarini, marosimlarini O'zbekistonda yashovchi boshqa millat vakillariga yaqindan tanishtirishga e'tibor qaratadi. Badiiy jamoalar, havaskorlar va xalq ardog'idagi san'atkorlar konsertlari, milliy taomlar, milliy liboslar, hunarmandlar ko'rgazmalari namoyishlari kishiga olam-zavq beradi. Millati, tili, dini va irqidan qat'i nazar, har bir kishining qalbiga yangilik, quvonch olib kiradi.

Navro'z xayr-u saxovat ishlariga da'vat hamdir. Shu kunlari nogironligi bor yurdoshlarimizga, bemor-u nochor kishilarga saxovat ko'rsatiladi, holidan xabar olinib, imkon darajasida moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanadi. Yurtimiz Navro'zi ana shunday eziguliklar timsoli. U shunchaki namoyish, bayram emas, balki odamning insoniy tuyg'ulariga quvvat berguvchi, ulami yaqinlashtiruvchi, jipslashtiruvchi, yagona vatan tuyg'usini mustahkamlaguvchi bebaho omildir.

Qarorda so'ngi yillarda yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tom ma'nodagi tarixiy o'zgarishlarga mos holda ma'no-mazmuni tobora chuqurlashib borayotgan Navro'z ayyomini barcha shahar va qishloqlarimizda, butun yurtimizda umumxalq sayli sifatida, yuksak tashkiliy saviyada va ko'tarinki ruhda nishonlash maqsadida tegishli masalalar belgilab berilgan.

Shuningdek, joylarda Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan barcha tadbirlarni yuksak darajada tashkil etish, ularda yurdoshlarimizning faol ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yilgi Navro'z

muborak Ramazon hayiti bayrami bilan hamohang tarzda nishonlanishi uning insonparvarlik tamoyillarini yanada kuchaytirishini inobatga olib, keksa avlod vakillarini, xususan, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e'zozlash, "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariga kiritilgan va ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga muhtoj dasturxonlarini tashkil etish hamda turli xayriya tadbirlarini mahallala faollari, yoshlar va xotin-qizlar vakillari ishtirokida uyushqoqlik bilan o'tkazish nazarda tutilmoqda.

Navro'z bayrami kunlari Hazrat Alisher Navoiy bobomizning "Har tuting qadr o'lubon, har kuning o'lson Navro'z!" baytlarini qayta-qayta tilga olamiz, — deydi Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o'rinbosari Minhojiddin Mirzo. — Uning mohiyatiga bugungi kun nuqtayi nazaridan o'zgarchoq nazar tashlasak, qadr tuni — muborak Ramazon oyi ichra ezgu duolar, niyatlar ila bedor o'tkaziladigan tun. Bu tun tongga qadar qilingan ibodat, ming uyliq ibodat savobini beradi, ezgu niyatlar, duolar qabul bo'ladi deyildir. Navro'z — Yangi kun esa uyg'unlash, yasharish fasli bahorga yo'ldosh, tun va kun adolat tarozini ichra teng kelgan muddat, borliq, bog'rog'lar jannatini iforlarga to'lgan, dalalarda dehqon yer haydab, baraka urug'ini sochadigan palla. Qarangki, qadr tunidagi yaxshilik sog'inchi, tabiatdagi uyg'unlash zaminidagi baraka va xayriy oqibat ilinji O'zbekistondagi bugungi davr, islohotlar ruhiga qanchalar uyg'un.

Doshqozonlar atrofida sumalak, halim tayyorlash, o'yin-kulgilar mohiyatida, avvalo, xalqimizning bir-biriga mehr-oqibat, birligi, hamjihatligi, yelkadoshligi, bir maqsad yo'lida bir-biriga suyanchiligi namoyon bo'ladi. Bugun ham bizga Navro'zning bu kabi insonparvarlik tamoyillarini juda zarur.

Navro'zning insonparvarlik mohiyati, azaliy qadriyat va an'analariga hamohang ekani joylarda, katta maydon va sayilgohlarda, barcha mahallalarda nishonlanadigan shodiyonalari mohiyatini belgilab beradi. Mamlakatimizdagi tub demokratik islohotlar, xalqimizning kundalik hayoti, ongi va dunyoqarashida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar mevasi sifatida bo'y ko'rsatadi.

Nodir MAHMUDOVI,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Ramazon tarovati

Hamon esimda. Ramazon oyi kelsa, bolalar uchun bayram edi. Oilalar dasturxonini har qachongidan-da mo'l, fayzli bo'lardi, nazarimda. Qay bir xonadonga kirmaylik, cho'ntagimiz shirinliklarga to'lib toshar, qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug'lar o'rtasida o'zaro bordi-keldi avj oldirdi. Onam tandirdan uzgan issiq nonlarni dasturxoniga o'rab, yoshi ulug'lar, bemorlarni yo'qlashga oshiqardi...

SAXOVATGA BOY AMALLAR

Qadri baland qadriyatlar keyingi yillarda yanada rivojlandi. Nogiron, o'zgarlar parvarishiga muhtoj, ehtiyojmand aholi qatlamlarini moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, kundalik hayot tarzi uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berish sa'y-harakatlari ko'lami kengaydi, yangi tashabbuslar quloq yozdi.

66 Prezidentimizning 2026-yil 17-fevraldagi "Muborak Ramazon oyida ehtiyojmand aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari to'g'risida"gi qarori doirasida amalga oshirilayotgan saxovat amallari yuzlab o'ksik ko'ngillarga quvonch, shodlik, shukronalik tuyg'ularini olib kirmoqda.

Farg'ona viloyatida ham keksalar, yolg'iz va ehtiyojmand fuqarolar holidan xabar olinmoqda, ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalarga amaliy yordam berilyapti. Bu xayriy tashabbus yurtimizda inson qadriini ulug'lash, mehr-oqibat va saxovat kabi ezgu fazilatlarimizning amaldagi tantanasi.

Farg'ona shahridagi Yoshlar mahallasida yashovchi Surayyo Qambarovning voyaga yetmagan uch farzandi bor. "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan bu oila uchun bolalar nafaqasi tayinlangan. Kuz-qish mavsumida esa 1 million so'm miqdorida bir martalik doirasida bu oila holidan yana bir bor xabar olindi.

Bizga ko'rsatilayotgan mehr, e'tibor uchun katta rahmat, — deydi Surayyoxon. — Istitish mavsumida ko'rsatilgan moddiy yordamga tayanib, bolalarim bilan qishdan sog'-salomat chiqib oldik. Ramazon oyida ham oilamizga 500 ming so'm ajratildi. Biz yolg'iz, e'tibordan chetda qolmayotganimizni, yaxshilar mehriini his qilib yashayapmiz.

Shu mahallada yashovchi Aleksandr Sichyov o'n oy avval insulini boshdan kechirgan, buning ustiga, yiqilib, bir oyog'i singan. Mahalladagi ijtimoiy xodim tomonidan keksa ochilib, dastlab fuqaro chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikka yo'naltirildi, I guruh nogironligi belgilanib, nafaqa tayinlandi. Vaucher asosida nogironlik aravachasi bilan ta'minlandi. "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi mablag'lari hisobidan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish uchun ham vaucher berilgan.

Ramazon munosabati bilan bizga moddiy yordam berishdi. Bunday g'amxo'rliklar ko'nglimni ko'tardi, yashashga yanada ruhlantirdi. Hozir turmush o'rtog'im

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

JAMIYATIMIZDA ZO'RAVONLIKKA O'RIN YO'Q



Sharh

Ilhomjon RAHMONQULOV,
Oliy sud sudyasi

Yurtimiz bo'yab 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami keng nishonlanayotgan shu kunlarda barcha mehnat jamoalari, mahallalar, har bir oilada duogo'y onaxonlarimiz, munis opa-singillarimizga alohida e'tibor, hurmat-ehtirom ko'rsatilmog'da. Prezidentimizning shu yil 3-martdagi "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to'g'risida"gi farmoni bayram shukuhiga yanada ko'tarinkilik, opa-singillarimiz qalbiga faxr-iftixor bag'ishladi desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Zero, mamlakatimizda ayollar va bolalar huquqlarini ishonchli ta'minlash, ularni har qanday tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish hamda jamiyatda bunday holatlarga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bunda, ayniqsa, davlat organlari va tashkilotlarining mazkur yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirilgan holda samarali yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayollar va bolalar huquqlarini ta'minlash masalasi dunyoning deyarli barcha davlatlari konstitutsiyalarida, qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Shunga qaramay, dunyoning

biror mamlakati yo'qki, ayol yoki bola huquqlari to'la-to'kis darajada ta'minlangan bo'lsa. Quyidagi ma'lumotlar ham fikrimizni tasdiqlaydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bugun dunyoda har uch ayoldan biri hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka uchraydi.

Bolalarga nisbatan jinsiy jinoyatlar esa global xavfsizlik masalasiga aylangan. Shu sababdan AQSH, Janubiy Koreya, Filippin kabi davlatlarda bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik uchun umrbod ozodlikdan mahrum etish qonun bilan belgilangan. Yana bir ma'lumot. Dunyoda 650 mingdan ortiq qiz bola 18 yoshga to'lmasdan

turmushga chiqqan. Qariyb 12 million qiz etnik nioh qurboni bo'ladi.

Jamiyatimiz uchun bu holat begona emas. Qiz bola balog'at yoshiga yetishi bilan turmushga berishga shoshilamiz. O'qib olina bo'larmidi, qolganini qaynonasining maktabida o'qiydi degan qarashlar ayrim hollarda qizlarning baxtsizligiga sabab bo'lyapti.

Yurtimizda ayollar va bolalarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan ishonchli himoya qilish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, sud amaliyoti ularga nisbatan zo'ravonlik va tazyiq o'tkazish holatlari hanuzgacha uchrayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, 2025-yilda ayollarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiq o'tkazish bilan bog'liq ko'rilgan jinoyat ishlaridan anglashiladiki, bunday holatlardan 2800 dan ziyod ayol jabrlangan, 1100 dan ortiq holat bo'yicha esa 1200 dan ziyod bola jabr ko'rgan.

Davlatimiz rahbarining shu yil 3-martdagi farmonida mamlakatimizda ayollar va bolalar huquqlarini ishonchli ta'minlash, ularni har qanday tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish hamda jamiyatda bunday holatlarga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirishga xizmat qiluvchi aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Xususan, 2026-yil 1-apreldan boshlab himoya orderi berilgan jabrlanuvchi xotin-qizlarning aloqa vositalariga "SOS" chaqiruv tugmalari o'rnatiladi, zo'ravonlarni majburiy ambulator psixiatri ko'rigidan o'tkazish tartibi joriy etiladi.

2026-yil 1-noyabrden boshlab esa Jinoyat kodeksining 6 ta maddasidagi jinsiy jinoyatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov ichki ishlar organlaridan prokuratura organlariga o'tkaziladi.

Shuningdek, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan shahvoniy shilqimlik

bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlikka oid ish hujjatlari "qilishda jinoyat alomatlari mavjud emasligi haqida" prokuror tomonidan qaror qabul qilinganidan so'ng sudga yuboriladi. Pedofillar, ya'ni JKning 118- va 119-moddalaridagi jinoyatlarni sodir etgan

shaxslar manzil koloniyalarga o'tkazilmaydigan mahkumlar toifasiga kiritiladi.

2027-yil 1-yanvardan ilg'or xalqaro amaliyotlar, shu jumladan, Kanada va Ispaniya tajribasi asosida ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlariga

ixtisoslashtirilgan va maxsus tayyorgarlikdan o'tgan tergovchilar va sudyalari faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Pedofillar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilishgacha bo'lgan jazoni belgilash, shuningdek, shahvoniy jilqimlik uchun ma'muriy javobgarlikni kuchaytirish bo'yicha qonun loyihasini uch oy muddatda kiritish vazifasi belgilandi.

Bu choralar natijasida jabrlanuvchilarning himoyasi kuchayadi, tergov va sud jarayonlari sifati oshadi, zo'ravonlik qurbonlariga tez va samarali yordam ko'rsatiladi, huquqbuzarliklarning latentligi kamayadi va jazo muqarrarlari ta'minlanadi.

Ahamiyatli, farmon bilan jamiyatda gender tenglikni mustahkamlash, voyaga yetmaganlar va ayollar huquqlarini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish, zo'ravonlikka qarshi murosasizlik muhitini shakllantirish hamda oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini oshirish orqali kelajak avlodning sifati tarbiyasiga zamin yaratiladi.

Shu bilan birga, mazkur hujjat davlat organlari, jamoatchilik va diniy idoralar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirib, fuqarolarning faol ishtirokini rag'batlantiradi, bilim va iqtisodiy mustaqil ayollar sonini ko'paytirishga xizmat qiladi. Natijada zo'ravonlik holatlari keskin kamayadi, jamiyatda adolat va xavfsizlik darajasi yuqorilaydi, mamlakatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shildi.

Albatta, bu yo'lida yanada ko'proq aql bilan mulohaza yuritishimiz, ayollar va bolalar huquqlarini ta'minlashda mavjud muammolarni aniqlash hamda birgalikda qonuniy yechimini topish, joylarda aholining bu boradagi huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishimiz lozim bo'ladi.

66 2025-YILDA AYOLLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK VA TAZYIQ O'TKAZISH BILAN BOG'LIQ KO'RILGAN JINOYAT ISHLARIDAN ANGLASHILADIKI, BUNDAY HOLATLARDAN 2800 DAN ZIYOD AYOL JABRLANGAN, 1100 DAN ORTIQ HOLAT BO'YICHA ESA 1200 DAN ZIYOD BOLA JABR KO'RGAN.



Yangi O'zbekiston ruhi

BUYUK ISLOHOTLAR –

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT UYG'UNLIGI



Mirzo Ulug'bek ABDUSALOMOV,
Konstitutsiyaviy sud raisi,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
yurist

Boshlanishi 1-betda

Muhimi, jamiyatimizda inson omiliga munosabat o'zgaradi. "Inson qadri uchun" degan ezu g'oya amalda o'z ifodasini topmoqda. Adolati sud-huquq tizimini shakllantirish, davlat xizmatlarini xalqqa yaqinlashtirish, yoshlar va xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim va innovatsiyaga ustuvor ahamiyat qaratish — bularning barchasi Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga qaratilgan strategik qadamlar.

Bugungi shiddatli global raqobat sharoitida taraqqiyot aniq reja, qat'iy intizom va uzluksiz yangilanishni talab etadi. Yangi O'zbekiston g'oyasi ana shu talablarga javob beradigan milliy taraqqiyot modeli sifatida namoyon bo'lmoqda. Agar Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlarida zaminimiz ilm-fan va ma'rifat markazi sifatida nom qozongan bo'lsa, bugungi maqsad shu tarixiy nufuzli zamonaviy innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va yuksak intellektual salohiyat asosida qayta tiklashdir.

Shu ma'noda, so'nggi o'n yilni, mubolag'asiz, asrlarga tatigulik davr deb atash mumkin. Chunki bu yillar mobaynida jamiyat ruhiyati, davlat va xalq o'rtasidagi munosabatlar,

mamlakatimizni xomashyo yetishtiruvchi davlat modeli doirasidan chiqarib, qo'shilgan qiymati yuqori mahsulotlar ishlab chiqarish bosqichigacha yuksaltirishni nazarda tutadi.

Strategik fikrlashning muhim belgilaridan biri bugungi muammoni hal qilish bilan birga ertangi ehtimoliy xavf-xatarlarni oldindan ko'ra bilishdir. Uchinchi Renessans g'oyasi davlatimiz rahbarining uzoqni ko'ra bilish qobiliyatini yanada keng va yorqin namoyon qildi.

Har qanday keng ko'lami islohotlar, avvalo, siyosiy iroda va qat'iy pozitsiyadan boshlanadi. O'tgan davrda mamlakatimiz hayotining deyarli barcha sohasini qamrab olgan minglab qaror va farmonlar davlatchilik falsafasidagi tub burilishning amaldagi huquqiy ifodasi bo'ldi.

Eng muhim o'zgarish shundaki, islohotlar tashqi shaklni emas, ichki mohiyatini o'zgartirishdan boshlandi. Davlatning roli qayta ta'riflandi: u nazorat qiluvchi va jazolovchi emas, balki xalq manfaatiga xizmat qiluvchi institut sifatida belgilab qo'yildi. "Xalq davlat idoralarga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyil boshqaruvning bosh mezoniga aylandi. Bu g'oya rahbariyatning siyosiy bayonoti darajasida qolib ketmadi, balki amaliy boshqaruv jarayoniga tatbiq etildi.

Rahbar xodimlarning muammolari joyida o'rganishi, tanqidiy tahlil va shaxsiy mas'uliyat tamoyiliga tayanishi boshqaruv madaniyatida mutlaqo yangi standartni shakllantirdi. Ilgari muammo yashirilardi edi, bugun esa uni ochiq tashlash va hal etish ustuvor vazifaga aylandi. Ilgari hisobot rasmiy raqamlar bilan cheklangan bo'lsa, bugun natija inson hayotidagi amaliy o'zgarish bilan o'lchanmoqda.

Iqtisodiy liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, sud-huquq tizimini qayta qurish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan bunday izchil chora-tadbirlar butun boshqaruv tafakkurini o'zgartirishga qaratilgan



Eng muhimi, "Davlat faoliyati inson uchun" tamoyili deklarativ shior darajasida qolib ketmadi. U boshqaruv amaliyoti, hisobdorlik va ochiqlik madaniyati orqali namoyon bo'layotir. Jamiyatning siyosiy faolligi ortib, fuqarolik pozitsiyasi mustahkamlanmoqda. Ishonch muhiti esa investitsiyaviy jozibadorlikdan tortib, ijtimoiy barqarorlikka qadar barcha sohaga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omilga aylandi. Chunki ishonch bor joyda hamkorlik bor. Hamkorlik bor joyda esa barqaror taraqqiyot ta'minlanadi.

Konstitutsiyaviy modernizatsiya va huquqiy kafolat

2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu hujjat ayrim normalarni emas, davlatning mazmun-mohiyatini ham yangiladi.

Yangi tahrirda ijtimoiy davlat g'oyasi, inson huquq va erkinliklarining ustuvorligi, xususiy mulk daxlsizligi, fuqarolik jamiyat institutlarining roli konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Bu esa islohotlarning vaqtinchalik siyosiy jarayon emas, balki uzoq muddatli strategik yo'nalish ekanini huquqiy jihatdan kafolatlaydi.

Mohiyatan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyani Uchinchi Renessans g'oyasining huquqiy arxitekturasini deyaish mumkin. U davlat va jamiyat munosabatlarini yangi tamoyillar asosida belgilab, inson qadri oliy qadriyat sifatida e'tirof etdi. Bu poydevor barqaror rivojlanish, siyosiy izchillik va iqtisodiy xavfsizlik uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi.

Inson qadri va adolat ustuvorligi

Sud-huquq sohasidagi islohotlar inson qadri yuksaltirish siyosatining eng hal qiluvchi yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayon qat'iy siyosiy iroda va izchil harakatlar natijasida amalga oshirilmoqda.

Birinchi, sud mustaqilligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifasi etib belgilab qo'yildi. Sudyalarni tanlash va tayinlash tizimi takomillashtirildi, ularning professional mustaqilligi va daxlsizligi kuchaytirildi. Sud hokimiyatining alohida va teng huquqli tarmoq sifatidagi maqomi amalda mustahkamlandi.

Ikkinchidan, jazo siyosatining liberallashtirilishi insonparvarlik tamoyiliga asoslangan yangi yondashuvni shakllantirdi. Jinoiy jazolarni yengillashtirish, ayrim qilmishlarni dekriminalizatsiya qilish, ozodlikdan mahrum etishga alternativ choralarini qo'llash kabi mexanizmlar joriy etildi. Bular jazolashdan ko'ra, shaxsni qayta tarbiyalash, to'g'ri yo'lga yo'naltirish g'oyasi ustuvorligi adolat tushunchasining mazmunan yangilanganidan dalolat.

Uchinchidan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning konstitutsiyaviy shikoyat qilish huquqini mustahkamlab, konstitutsiyaviy nazorat mexanizmlarini yanada kuchaytirdi. Konstitutsiyaviy sud vakolatlarining kengaytirilishi davlat hokimiyati tarmoqlari

o'rtasidagi muvozanatni mustahkamlashga xizmat qildi. Bularning barchasi huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi muhim qadamlardir.

Shu bilan birga, tergov va sud jarayonlarida professional kafolatlar kengaytirildi, advokatura institutining roli oshirildi, odil sudlov samaradorligiga qaratilgan tizimli choralar ko'rildi. Eng muhim jihat — inson sha'ni va qadr-qimmat oliy qadriyat sifatida e'tirof etildi. Sud-huquq tizimi faoliyatida jazolovchi emas, huquqni himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, adolat o'rnatish maqsadga aylandi.

Davlatimiz rahbarining shaxsiy pozitsiyasi, ochiq muloqotga tayyorligi va tanqidiy tahlilga asoslangan faoliyati samarasida adolat boshqaruvning amaliyotidagi mezon sifatida tasdiq'ini topdi. Qonun ustuvorligi real mazmun kasb etib, islohotlar yangi O'zbekistonda demokratik davlatchilik va adolati jamiyat barpo etishning mustahkam poydevorini yaratdi.

Ijtimoiy davlat g'oyasining amaldagi ifodasi

Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy davlat g'oyasi deklarativ prinsipdan amaliy siyosat darajasiga ko'tarildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlangan ijtimoiy davlat tamoyili hayotga tatbiq etilmoqda. Buning mazmuni oddiy: iqtisodiy o'sish orqali erishilgan samara, avvalo, inson manfaatiga xizmat qilishi kerak.

Islohotlar markazida fuqaro, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar turgani inson qadriga yuksak e'tiborning amaldagi yana bir ifodasidir. Kam ta'minlangan oilalarni

Yana bir muhim jihat, ijtimoiy xizmatlarning raqamlashtirilishi bo'ldi. Elektron platformalar orqali nafaqa, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlarining ko'rsatilishi byurokratik to'siqlarni yo'qotib, shaffoflikni kuchaytirdi. Davlat xizmatlarining soddalashtirish fuqaroning vaqt va imkoniyatlarini tejashga xizmat qilmoqda.

Ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi yangilanishlar ijtimoiy davlatning strategik mazmunini ochib beradi. Yangi maktablar va oliy ta'lim muassasalarining ochilishi, tibbiyot muassasalarining modernizatsiya qilinishi, raqamli tibbiy xizmatlarning joriy etilishi inson kapitaliga uzoq muddatli sarmoya sifatida qaralayotganidan dalolat beradi. Chunki farovonlikning eng ishonchli kafolati bilimli, sog'lom jamiyatdir.

Muhimi, ijtimoiy adolat tamoyili davlat siyosatining ustuvor mezoniga aylandi. Fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, daromadlarini oshirish, yangi ish o'rnlari ochish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish — bularning barchasi tizimli yondashuvlar samarasi.

Boshqaruvning raqamli transformatsiyasi

Davlat boshqaruvidagi eng muhim institutsional yangilanishlardan biri raqamli transformatsiya bo'ldi. Bu jarayonni oddiy texnik modernizatsiya sifatida baholash noto'g'ri, albatta. Chunki gap axborot texnologiyalarini joriy qilish haqida emas, balki davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar falsafasini o'zgartirish haqida bormoqda.



qo'llab-quvvatlash tizimi manzilli va shaffof shaklga o'tkazildi. Ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam va xizmatlar yagona mezonlar asosida taqdim etila boshladi. Bu yondashuv ehtiyojni aniqlash, resursni tejash va haqiqiy manzilga yetkazish imkonini berdi.

Uy-joy siyosati ham ijtimoiy davlat g'oyasining muhim yo'nalishiga aylandi. Arzon turar joy dasturlari, ipoteka imkoniyatlarini kengaytirish, mahallalar infratuzilmasining yangilanishi fuqarolar turmush sifatini yaxshilashga qaratildi. Infratuzilmaga sarmoya kiritib, odamlarning turmush sharoitini yaxshilash orqali ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanayotir.

Raqamlashtirish davlat siyosatining strategik yo'nalishiga aylandi. Asosiy maqsad davlat xizmatlarini maksimal darajada soddalashtirish, inson omili ta'sirini kamaytirish va qaror qabul qilish jarayonini shaffoflashtirishdan iborat.

Bugun davlat xizmatlarining katta qismi elektron platformalar orqali taqdim etilmoqda. Ruxsatnoma va litsenziyalarni, ijtimoiy nafaqalar, soliq va bojxona xizmatlari, tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish kabi jarayonlarning raqamlashtirilishi vaqt va moliyaviy xarajatlarni sezilarli darajada qisqartirish imkonini berdi. Eng muhimi, fuqaro idora eshigi oldida sarson bo'ladigan korruptsiya

tizimdan elektron murojaat va onlayn xizmatlar tizimiga o'tishi ta'minlandi.

Raqamli transformatsiya davlatning ochiqligi va hisobdorligini ham kuchaytirdi. Elektron ma'lumotlar bazalari, onlayn monitoring va raqamli tahlil mexanizmlari qaror qabul qilish sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa korruptsiyaviy omillar va ma'muriy to'siqlarni qisqartirishda muhim vositaga aylandi. Shaffoflik orqali ishonch mustahkamlandi.

Eng dolzarb jihat — "servis davlat" va "proaktiv boshqaruv" modeli qaror topmoqda. Davlat faqat murojaatlarga javob beruvchi institut emas, balki fuqarolar ehtiyojini oldindan aniqlaydigan, tahlil qiladigan va zarur xizmatni taklif etadigan tizimga aylanmoqda. Masalan, ma'lum ijtimoiy holat yuzaga kelganda yoki fuqaro muayyan huquqqa ega bo'lganda davlat xizmatini avtomatik tarzda taklif etish amaliyoti yo'lga qo'yilmoqda. Bu boshqaruv madaniyatidagi sifati o'zgarishidir.

Raqamli texnologiyalar orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqot tez, qulay va samarali shaklga ega bo'ldi. Qabul qilinadigan qarorlar loyihasi xalq muhokamasiga qo'yilmoqda. Xalq fikri asosida qabul qilingan qarorlar ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Raqamli transformatsiya yangi O'zbekistonda samarali, ochiq va proaktiv davlat boshqaruvi shakllantirishga qaratilgan strategik yo'nalish bo'lib, aynan shu yondashuv raqobatbardosh iqtisodiyot va zamonaviy boshqaruv tizimining mustahkam poydevorini ta'minlaydi.

Yangi siyosiy yondashuv

Davlatning fuqarolikka oid siyosatidagi islohotlar huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi eng ahamiyatli o'zgarishlardan biri bo'ldi. Bu jarayon faqat me'yoriy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bilan cheklanmadi, balki insonparvarlik tamoyiliga tayangan yangi siyosiy yondashuvni qaror toptirdi.

1991-2016-yillarda fuqarolikka qabul qilish masalalarini cheklangan amaliyot doirasida ko'rib chiqilgan tufayli yigirma besh yilda bir necha yuz shaxs fuqarolikka qabul qilingandi. 2017-yildan keyin Prezidentimizning qat'iy siyosiy irodasi bilan fuqarolik berish tartib-taomillari soddalashtirildi, ortiqcha byurokratik to'siqlar bartaraf etildi, inson taqdiri va uning huquqiy maqomiga nisbatan adolati yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etdi. Natijada hozirgacha 100 mingdan ortiq shaxs O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilindi.

Bu raqam ortida shunchaki statistik ko'rsatkich emas, balki minglab insonlarning taqdiri, huquqiy aniqlikka erishishi, ijtimoiy integratsiyasi va kelajakka ishonchi mujassam. Fuqarolik shaxsning davlat va jamiyat bilan uzviy bog'liqligini anglatuvchi siyosiy-huquqiy qadriyatdir. Shu ma'noda, fuqarolik siyosatidagi islohotlar inson qadri yuksaltirish bilan bevosita uyg'unlashdi.

Yuksak ma'naviy mezonlar

Prezidentimizning davlat rahbari va millat yetakchisi sifatidagi faoliyati mamlakatimiz tarixida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berganini bugun nafaqat yurdodshlarimiz, balki xalqaro hamjamiyat ham keng e'tirof etmoqda. O'zbekistonning ochiq va pragmatik siyosati, inson huquqlari, mintaqaviy hamkorlik va iqtisodiy modernizatsiya sohasidagi izchil qadamlari mamlakatimizning xalqaro nufuzini sezilarli darajada oshirdi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar chuqur o'ylangan strategik yangilanish dasturining amaliy ifodasi bo'lib, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, sud-huquq tizimi, ijtimoiy soha, raqamli transformatsiya va tashqi siyosat kabi ustuvor yo'nalishlardagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq va yaxlit taraqqiyot modelini shakllantirdi.

Bularning barchasi keng qamrovli islohotlarning ayrim yo'nalishlari, xolos. Aslida, so'nggi yillardagi o'zgarishlar ko'lami va mazmuni jihatidan butun bir tarixiy davrga tengdir. Eng muhimi, bu jarayonlar muayyan sohalarini yangilash bilan cheklanmay, jamiyat tafakkurini, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar mazmunini o'zgartirdi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi islohotlar kelajak avlodlar taqdiri uchun ham xizmat qiladigan strategik qarorlar ekanini anglash mumkin. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bu siyosiy iroda, xalq ishonchi va inson qadri oliy mezon sifatida belgilagan davlat siyosatining uzviy uyg'unligi samarasidir.

Bir so'z bilan aytganda, yuksaklikka bo'y cho'zayotgan mamlakatimizdagi islohotlar nafaqat zamonaviy qudratli davlat, balki yuksak insoniy qadriyatlarga tayangan adolati jamiyat barpo etishga qaratilgan va uzoqqa mo'ljallangan tarixiy tanlov.



boshqaruv madaniyati va strategik maqsadlar tubdan yangilandi.

Boy tajriba va ulkan tafakkur

Uchinchi Renessans g'oyasi shunchaki zalvorli shior yoki qisqa muddatli siyosiy dastur emas. U milliy taraqqiyotning chuqur o'ylangan, tarixiy tajriba va zamonaviy global jarayonlar tahliliga tayangan strategik konsepsiyasidir. Bu g'oyaning markazida inson kapitali turadi. Zero, XXI asrda boylik tabiiy resurslar bilan emas, bilim, innovatsiya va intellektual salohiyat bilan o'lchanmoqda.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Uchinchi Renessans tamoyili aynan shu haqiqatni anglashdan kelib chiqqan. Inson kapitaliga sarmoya kiritish ijtimoiy siyosat, davlat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik va milliy raqobatbardoshlik masalasidir. Maktabgacha ta'lim qamrovining kengayishi, zamonaviy maktablar barpo etilishi, yangi universitetlar va xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallarining ochilishi, ilmiy tadqiqot faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan qarorlar kamida bir necha o'n yillik istiqbolni ko'zlagan strategik tafakkur va yondashuv hosilasidir. Ilm-fan va innovatsiyani iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar

strategik siyosiy tanlov natijasidir. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot yo'li ortga qaytmaz xususiyati bilan g'oyat muhim ahamiyatga ega ekanini xalqaro miqyosda ham keng tan olingan haqiqat.

Bugun mamlakatimizda har bir fuqaroga boshqaruv obyekti emas, balki uning faol ishtirokchisi sifatida qaralmoqda. Tafakkurdagi ana shu muhim o'zgarish yangi O'zbekiston islohotlarining eng mustahkam manbai bo'lib xizmat qilayotir.

Ishonch kapitali — barqarorlik omili

Mamlakatimizda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda sifati jihatdan mutlaqo yangi muhit shakllantirildi. Asosiy, o'zaro ishonch tiklandi va u institutsional asos kasb etdi. Bu siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik kapital ekanini ko'pchilik yaxshi biladi.

Murojaatlar bilan ishlashning yagona tizimi, ochiq muloqot va jamoatchilik nazorati mexanizmlari davlat boshqaruvida mutlaqo yangi amaliyotni qaror toptirdi. Ilgari fuqaro muammosi idora devorlari ortida qolib ketgan bo'lsa, bugun u davlat siyosati kun tartibiga chiqmoqda. Murojaatlar tahliili qaror qabul qilish jarayonining asosiy mambaiga aylandi.



2026-yil 11-mart, 47-son

4

YANGI O'ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Tahlil

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA:

STARTAPLARDAN 5G GACHA

Bugun raqamli texnologiyalar jahon iqtisodiyotida hal qiluvchi omilga aylandi. Xalqaro tahlillar raqamlashtirish darajasi yuqori mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot o'sishi barqaror, mehnat unumdorligi esa ancha yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Sababi oddiy: raqamli yechimlar vaqt, xarajat va inson omili bilan bog'liq xatarlarni kamaytiradi, qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

Raqamli iqtisodiyotni tizimli rivojlantirgan davlatlar raqobatda ustunlikka ega bo'lmoqda. Ular yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot va xizmatlar ishlab chiqadi, eksport geografiasini kengaytiradi hamda global investitsiya oqimini jalb qiladi. Shu bilan birga, elektron davlat xizmatlari orqali biznes yuritish osonlashadi, soyaqadgi iqtisodiyot hajmi qisqaradi, davlat boshqaruvida shaffoflik ta'minlanadi. Shuningdek, innovatsion ekotizim tez shakllanadi. Startaplar, venchur investitsiyalar va ilmiy ishlanmalar iqtisodiy o'sishning muhim manbaiga aylanadi. Bu jarayonda inson kapitali hal qiluvchi o'rin tutadi. Ta'lim va raqamli ko'nikmalarga sarmoya kiritilmagan jamiyat raqamli transformatsiyadan kutilgan natijani olo olmaydi.

Shu bois, raqamli rivojlanish bugun har bir davlat uchun strategik masaladir. Bu sohada ortda qolish iqtisodiy o'sish sur'atining pasayishiga, raqobatbardoshlikning yo'qolishiga olib keladi. Aksincha, raqamli islohotlarni izchil amalga oshirgan mamlakatlar iqtisodiy barqarorlik, samarali davlat boshqaruvi va aholi turmushi sifatini oshirishga erishmoqda.

Davlatimiz rahbari 20-yanvar kuni raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sohasida erishilgan natijalar hamda 2026-yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalarga bag'ishlangan taqdimot bilan tanishdi. Mazkur taqdimot mamlakatda raqamli transformatsiya jarayoni tizimli tus olgani, bu yo'nalish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini yana bir bor namoyon etdi.

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va innovatsion ekotizimni shakllantirish bo'yicha qilingan ishlar aniq natija bermoqda. Xususan, xorijiy ekspertlarning tahliliga ko'ra, 2024-2025-yillarda O'zbekistondagi startap va venchur ekotizimining umumiy qiymati 3,9 milliard dollarga yetdi. Bu ko'rsatkich raqamli sohada qabul qilingan qarorlar tasodifiy emas, balki iqtisodiy hisob-kitob va strategik rejalashtirishga asoslanganini ko'rsatadi.

Mahalliy startaplar sonining 750 dan oshgani mamlakatda innovatsion faollik keskin o'sganidan dalolat beradi. Bu, avvalo, yoshlar o'rtasida texnologik tadbirkorlikka qiziqish kuchaygani, startaplar uchun huquqiy va moliyaviy sharoit yaratilganini bilib olinadi. Ayni paytda 15 ta venchur fond faoliyat

yuritayotgani va venchur kapital hajmining 180 million dollardan oshgani xususiy sarmoya va xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston raqamli bozoriga ishonchi ortib borayotganidan dalolat.

Muhimi, ushbu sarmoya an'anaviy sohalarga emas, balki yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan, eksportga qaratilgan raqamli mahsulot va xizmatlarga yo'naltirilmoqda. Bu esa iqtisodiyotni tarkibini diversifikatsiya qilish, xo'shkorlikka mustahkam o'rin egallash imkonini beradi.

Xalqaro baholashlarga ko'ra, O'zbekiston dunyodagi ikkinchi tez o'sib borayotgan, Markaziy Osiyoda esa eng jadal rivojlanayotgan startap ekotizimi sifatida e'tirof etilmoqda. Bu natija davlat, xususiy sektor va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik izchil yo'lga qo'yilgani bilan bog'liq.

Ushbu ko'rsatkichlar raqamli texnologiyalarni rivojlantirish mamlakat uchun qisqa muddatli loyiha emas, balki uzoq muddatli strategik ustuvor yo'nalish ekanini tasdiqlaydi. Endigi asosiy vazifa — o'sish sur'atini saqlab qolish bilan birga startaplarni global bozorga olib chiqish, venchur moliyalashtirish hajmini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va raqamli iqtisodiyotni milliy taraqqiyotning asosiy drayverlaridan biriga aylantirishdir.

Taqdimotda 2030-yilga qadar startaplar sonini 5000, eksport bozoriga chiqqan startaplar sonini 200 taga yetkazish hamda venchur investitsiyalar

hajmini 2 milliard dollarga ko'tarish maqsad qilingani ta'kidlandi. Bu ko'rsatkichlar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida mamlakat oldiga qo'yilgan vazifalar ko'lamidan dalolat beradi.

Mazkur maqsadlar tasodifiy emas. Ular xalqaro tajriba, bozor tahlillari va hozirgi salohiyatni hisobga olgan holda belgilangan. Startaplar sonining keskin oshishi ichki raqobat muhitini kuchaytiradi, innovatsion g'oyalarning



bozorga chiqishini tezlashtiradi va yangi ish o'rinlari ochilishiga xizmat qiladi. Eksportga chiqqan startaplar sonini ko'paytirish esa raqamli mahsulot va xizmatlarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlash, valyuta tushumini oshirish va mamlakatning texnologik imijini mustahkamlashga qaratilgan.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun xalqaro amaliyot asosida startaplarni

qo'llab-quvvatlashning to'rt bosqichli tizimi joriy etilmoqda. Ya'ni g'oyadan mashtablashtirishgacha bo'lgan butun zanjimi davlat va xususiy sektor qo'llab-quvvatlaydi. G'oya va ishlab chiqish bosqichlarida grantlar hamda soliq imtiyozlari taqdim etilib, innovatsion tashabbuslarning ilk qadami rag'batlantiriladi. Ishga tushirish va mashtablashtirish bosqichlarida esa qo'shma moliyalashtirish, eksport xarajalarini qoplash uchun moliyaviy resurslar ajratilishi ko'zda tutilgan.

Bunday yondashuv startaplarni faqat tashkil etish bilan cheklanib qolmay, barqaror biznes subyektlariga aylantirish, global bozorga chiqishga tayyorlashni nazarda tutadi. Ayni

davlat xizmatlari biznes yuritish xarajatini qisqartirish, ma'muriy to'siqlarni kamaytirish va innovatsion faoliyat uchun qulay institutsional muhitni shakllantirish imkonini beradi.

Umuman, belgilangan maqsad va mexanizmlar raqamli iqtisodiyotni mamlakat taraqqiyotining uzoq muddatli drayveriga aylantirishga qaratilgan strategik yondashuv ekanini ko'rsatadi.

Taqdimotda elektron davlat xizmatlarini yanada rivojlantirish va sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha aniq rejalar belgilandi. Jumladan, raqamli xizmatlar sonini 900 tagacha yetkazish, "my.gov.uz" mobil ilovasining funksional imkoniyatlarini kengaytirish, 50 dan ortiq davlat xizmatida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish rejalashtirilgani qayd etildi. Bu ko'rsatkichlar raqamlashtirish jarayoni faqat xizmatlar sonini oshirish emas, balki ularning sifati, qulayligi va foydalanuvchiga yo'naltirilganini ta'minlashga qaratilganini ko'rsatadi.

Xususan, aholining yagona reyestrini ishlab chiqish davlat boshqaruvi uchun muhim institutsional asos yaratishga xizmat qiladi. Bu orqali ma'lumotlarni takror yig'ish amaliyoti bartaraf etiladi, davlat idoralari o'rtasida ma'lumot almashish tezlashadi, qaror qabul qilish jarayonida aniqlik va ishonchlik oshadi. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlari ochish, yakka tartibdagi tadbirkorlarni hisobga qo'yish, bank plastik kartasini ochish, sim karta olish, sug'urta va reklama xizmatlarini raqamlashtirish kabi jarayonlarning onlayn yo'lga qo'yilishi aholi va biznes uchun vaqt hamda xarajati sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

Bu kabi xizmatlarning raqamlashtirilishi, avvalo, ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, inson omili bilan bog'liq xavflarni cheklash va soya iqtisodiyoti ulushini qisqartirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, elektron davlat xizmatlari raqamli iqtisodiyot rivojining muhim poydevoridir.

Taqdimotda, shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalari uchun zarur infratuzilmani yaratish ishlarining borishi haqida ham atroflicha axborot berildi. Ayni paytda zamonaviy kichik superkompyuter ishga tushirilgan, katta quvvatga ega superkompyuterini xarid qilish va ekspluatatsiyaga joriy etish ishlari faol bosqichda ekan ta'kidlandi. Bu infratuzilma sun'iy intellekt yechimlarini amaliy jihatdan tatbiq etish uchun zarur.

Loyihani amalga oshirish natijasida 15 ta oliy ta'lim muassasasida sun'iy intellekt laboratoriyalari tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Bu esa sohada yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish va mahalliy sun'iy intellekt yechimlarini ishlab chiqish uchun mustahkam asos yaratadi. Muhimi, mazkur chora-tadbirlar O'zbekistonda sun'iy intellektni import qilishdan yaratish va joriy etish bosqichiga o'tishga xizmat qiladi.

Umuman, elektron davlat xizmatlari va sun'iy intellekt infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar raqamli transformatsiyaning navbatdagi, sifat jihatdan yangi bosqichini boshlab berayotir.

Taqdimotda mamlakat hududida zamonaviy data markazlar tarmog'ini yanada kengaytirish, axborot tizimlarining barqaror ishlashi, ma'lumotlar xavfsizligi va uzluksizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu yo'nalish raqamli transformatsiyaning texnik asosini tashkil etadi. Chunki raqamli xizmatlar hajmi oshgani sari ma'lumotlarni ishlash, saqlash va himoya qilishga talab ham ortadi.

Zamonaviy data markazlar tarmog'ini rivojlantirish orqali davlat axborot resurslarini markazlashgan holda boshqarish, xizmatlarning uzluksiz ishlashini ta'minlash va tashqi xatarlarga bardoshli infratuzilma yaratish imkonini paydo bo'ladi. Bu, ayniqsa, elektron davlat xizmatlari, bank-moliya tizimi va strategik ahamiyatga ega axborot resurslari uchun juda muhim. Shu bilan birga, ma'lumotlarni mamlakat ichida saqlash raqamli suverenitetni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish masalalari ham taqdimotning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etildi. Bu borada so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atiga erishilayotgani, internet tezligi va qamrovi yildan yilga oshib borayotgani, mobil aloqa xizmatlari sifati sezilarli darajada yaxshilangani ta'kidlandi. Ushbu ko'rsatkichlar raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyati aholi uchun kengayayotganini ko'rsatadi.

2026-yilda 5G texnologiyalarini joriy etish rejsi esa telekommunikatsiya sohasida sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab beradi. Yuqori tezlik, past kechikish va katta ma'lumotlar oqimini uzatish imkoniyatiga ega 5G tarmoqlari sanoat, transport, tibbiyot va "aqlli shahar" loyihalarida raqamli yechimlarni keng joriy etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, aholi punktlarini yuqori tezlikdagi internet bilan qamrab olish ishlari davom ettirish raqamli tenglikni ta'minlash, shahar va qishloq o'rtasidagi farqni qisqartirishga qaratilgan.

Sun'iy yo'l-dosh aloqasidan foydalanishni kengaytirish rejaları esa geografik jihatdan olis hududlarda ham barqaror internet va aloqa xizmatlarini yo'lga qo'yish imkonini beradi. Bu esa raqamli xizmatlardan barcha fuqarolarning teng foydalanishini ta'minlashda muhim omildir.

Prezidentimiz raqamli texnologiyalar iqtisodiyot tarmog'iga raqobatbardoshligini oshirish, davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini kuchaytirish va aholi hayoti sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlab, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifati bilan bajarish bo'yicha mutasaddi idoralar rahbarlariga tegishli topshiriqlar berdi. Bu topshiriqlar raqamli islohotlar amaliyotiga tatbiq etilishida shaxsiy mas'uliyat va natijadorlikka alohida e'tibor qaratilishini anglatadi.

Umuman olganda, taqdimotda belgilangan vazifalar raqamli texnologiyalarni mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining barcha sohasiga chuqur joriy etish, O'zbekistonda mintaqadagi raqamli rivojlanish markazlaridan biriga aylantirishga qaratilgan izchil va strategik "yo'l xaritasi" ekanini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz raqamli transformatsiyada barqaror va strategik yo'lni tanlagan. Startaplardan elektron davlat xizmatlariga, sun'iy intellekt laboratoriyalaridan 5G texnologiyalarigacha bo'lgan tizimli chora-tadbirlar mamlakatni raqamli iqtisodiyotda muntazam ravjga olib borishga xizmat qiladi. Endigi asosiy vazifa xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish va har bir fuqaroning raqamli imkoniyatlaridan teng foydalanishini ta'minlashdir.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Prezidentimiz huzurida shu yil 9-fevral kuni qishloq xo'jaligiga bag'ishlab o'tkazilgan taqdimotda sohada ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqish uchun amaldagi institutsional infratuzilmani o'zgartirish vaqti kelgani qayd etildi. Unda biotexnologiya, molekulyar biologiya, gen muhandisligi, gibrid urug'chilik, "aqlli" qishloq xo'jaligi, kosmik va dron texnologiyalari, yerlar degradatsiyasi hamda sog'lom tuproq, organik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi, veterinariya, qishloq xo'jaligini raqamlashtirishga oid takliflar ko'rib chiqildi.

foydalanish, fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash hamda sohani raqamlashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Qishloq xo'jaligida hosildorlik endi faqat mehnatga emas, balki texnologiyaga ham bog'liq bo'lib bermoqda. Iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va ishlab chiqarish xarajatlari o'sishi fermerdan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu sharoitda sun'iy intellekt qishloq xo'jaligida resurslarni tejaydigan, hosilni oshiradigan va daromadni ko'paytiruvchi samarali iqtisodiy yechim sifatida oldinga chiqmoqda.

Bu yo'nalishda xalqaro amaliyotda yetakchi bo'lgan FAO (Food and Agriculture Organization of the United Nations) turli mamlakatlarda raqamli fermerlik loyihalarini joriy etib, amaliy natijalarga erishib kelmoqda. Ayni paytda O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligini raqamli transformatsiya qilishga qaratilgan qator ishlar boshlandi.

Ushbu xalqaro tajriba O'zbekistonda qishloq xo'jaligi islohotlari doirasida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Masalan, sun'iy



Resursdan – natijaga

intellekt yechimlarini qo'llayotgan Senegalning yalpi ichki mahsuloti taxminan 30 milliard, Ruandaniki 14 milliard AQSH dollariga yetdi. Demak, iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan O'zbekiston uchun ham bu borada imkoniyat yanada keng ekan aniq ko'rinadi.

Qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt asosida

qabul qilingan qarorlar resurslarni tejash va hosildorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv an'anaviy usullarga nisbatan aniq ma'lumotlarga tayanishi bilan ustunlikka ega. Masalan, sun'iy intellekt qo'llanilganda suv sarfi o'rta 25-35 foizgacha qisqaradi, hosildorlik esa 15-30 foiz oshishi mumkin. Kasalliklar erta aniqlanadi

aniqlanadi va ortiqcha xarajalar kamayadi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Bu esa fermer daromadini ko'paytirish bilan birga qishloq xo'jaligini raqamli transformatsiya qilishga qaratilgan islohotlarning iqtisodiy samarasini ta'minlaydi.

Xalqaro tajriba va iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt qishloq xo'jaligi uchun qimmat tajriba emas, balki tez samara beradigan iqtisodiy yechimdir. U suv resurslarini tejaydi, hosildorlikni oshiradi va fermerlar daromadini o'sishiga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish O'zbekiston qishloq xo'jaligi uchun nafaqat mumkin, balki barqaror rivojlanish yo'lida zarur qadamdir.

Ushbu tashabbuslar doirasida sohani raqamlashtirish strategiyasi ishlab chiqilmoqda, agroma'lumot infratuzilmasi shakllantirilmoqda hamda fermerlarga raqamli xizmatlar ko'rsatish tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu esa sun'iy intellektni keng qo'llash uchun mamlakatimizda zarur tashkiliy va axborot poydevori yaratilayotganini anglatadi.

Iqlim xavflari oldindan bashorat qilinib, kutilmagan yo'qotishlar kamayadi. Aks holda, suv tanqisligi kuchayishi, hosil yo'qotishlari ortishi va raqobatbardoshlik pasayishi mumkin. Demak, texnologiyani joriy etmaslikning o'zi ham muayyan iqtisodiy xavflarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, suv resurslari va hosil yo'qotishlari bilan bog'liq xatarlar sun'iy intellekt orqali sezilarli darajada kamaytirilishi mumkin.

Sun'iy intellektni joriy etish katta sarmoya talab qiladi degan fikr amaliyotda to'liq tasdiqini topmayapti. Oddiy sensorlar, raqamli monitoring va prognoz tizimlari orqali o'rtaol fermer xo'jaliklari uchun ham samarali yechimlar joriy etish imkoniyati bor.

Hisob-kitoblarga ko'ra, bunday texnologiyalar suv tejalishi orqali yiliga o'rta 5-7 million so'm, o'g'it va kimyoviy vositalar sarfi kamayishi hisobiga 4-6 million so'm, hosil qiymati oshishi orqali esa 15-25 million so'mgacha qo'shimcha daromad keltirishi mumkin. Jami iqtisodiy samara 24-38 million so'mni tashkil etadi.

Boshlang'ich sarmoya o'rta 14-22 million so'm bo'lib, texnologiya ko'p hollarda 6-12 oy ichida o'zini qoplaydi. Bu esa sun'iy intellektni xarajat emas, balki yuqori daromad keltiruvchi investitsiya sifatida baholashga asos beradi.

Biroq texnologiyaning samarali ishlashi uchun faqat texnik yechimlar yetarli emas. Bu jarayon davlat siyosati, infratuzilma va bilim tizimi bilan uyg'un holda kechishi lozim.

Shu ma'noda, sun'iy intellekt qishloq xo'jaligidagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat tomonidan yaratilayotgan yangi imtiyozlar esa fermer xo'jaliklarida bunday texnologiyalarni joriy etish uchun amaliy iqtisodiy asos yaratmoqda.

Karamatilla HAITBOYEV,
texnika fanlari nomzodi, dotsent



Nuqtayi nazar

JADIDLAR VA MILLIY TARBIYA



Habib ABDIIYEV,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti prorektori

Bola tarbiyasida eng muhim bo'g'in maktabgacha ta'limdir. Chunki shaxsning ilk ma'naviy asoslari aynan 3-6 yoshda shakllanadi. Bolaning dunyoqarashi, axloqiy tushunchalari, o'zini anglash va jamoada hamkorlik qilish qobiliyati shu davrda yuzaga keladi. Demak, maktabgacha ta'lim faqat maktabga tayyorlov emas, balki milliy va ma'naviy poydevor yaratishning dastlabki bosqichidir.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 5-fevraldagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining shu yil 28-yanvardagi "Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlariga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida ta'lim siyosatining strategik yo'nalishlari, "Milliy tarbiya modeli"ni yaratish va uni ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida izchil joriy etish belgilab berilgan.

Bir yillik maktabga tayyorlov guruhlari umumiy o'rta ta'limning dastlabki pog'onasi sifatida joriy etish ta'limda uzluksizlikni ta'minlashga qaratilgan bilan muhimdir. Mazkur

singdiriladi, tarbiya jarayoni esa ibratli voqealar bilan boyitiladi. Shu yo'l bilan milliy g'urur tushunchasi aggressivlikdan xoli, ma'naviy yuksalish tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, Germaniya maktabgacha ta'limida e'tiborga molik "Kichik fuqaro" demokratik tarbiya modeli amal qiladi. Unda bolaga tarbiya obyektini emas, balki faol ishtirokchisi sifatida qaraladi. Bog'chalarda "Bolalar kengashi" tashkil etilib, o'zaro va sodda qarorlar bolalar ishtirokida qabul qilinadi. Shu tariqa ularda mas'uliyat va qadriyatlariga hurmat shakllanadi, o'z-o'zini anglash jarayoni tezlashadi.

Yurtimizda ham jadid ma'rifatparvarlar hayot yo'li va g'oyalarni maktabgacha ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar asosida integratsiya qilish imkoniyatlari

ular o'z fikrini ifoda etishni, boshqalarni eshitishni o'rganadi.

"Mening fikrim muhim" burchagi esa bolaga "sening o'z ovozing bor" degan qat'iy ishonch beradi. Shunda u rasm chizadimi, belgi qo'yadimi, baribir uning qarashi, aytgan fikrlari e'tiborsiz qolmaydi. "Adolat qutichasi" esa nizolarni pardalamay, ochiq muhokama qilish madaniyatini mustahkamlaydi. Bu bilan bola adolat, kelishuv va o'zaro hurmat tushunchalarini tabiiy ravishda o'zlashtiradi. Bunday yondashuvlar maktabgacha ta'limni o'zaro hurmat va hurmat tushunchalarini mustahkamlaydi. Bu fikri o'sib, dunyoqarashi tobora kengayib boradi.

Milliy tarbiya modeli haqida so'z yuritilgan ekan, uning nazariy asoslarini amaliyot bilan bog'lash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o'quv-metodik ta'minot, tarbiyachilarning malakasi va ta'lim muhitining mazmunan boyligi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Vatanni sevish — quruq shior emas. U insonning har bir so'zi va amallarida namoyon bo'ladigan yuksak ma'naviy xulq-atvordir. Bola tabiatni asrash orqali vatanni anglash, kattalarga hurmat orqali milliy madaniyatni his qilsin, yaxshi o'qish orqali yurtga foyda keltirish imkonini teran tushunsin. Ana shunda vatanparvarlik tuyg'usi tabiiy holda yuzaga chiqadi.

Bugungi global axborot muhitida milliy qadriyatlar yoshlikdan singdirilmasa, bola ongida ma'naviy bo'shliq yuzaga kelishi mumkin. Demak, axborot tezligi, global ta'sirlar va mafkuraviy raqobat kuchaygan zamonda bolaning ma'naviy immunitetini har qachongidan erta shakllantirish



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Agar biz bugun maktabgacha ta'limda jadidlar merosini mazmunan va ruhan tatbiq etsak, ertaga jamiyatda ma'naviy bo'shliq emas, balki ma'rifatli va mas'uliyatli avlod voyaga yetadi.

bosqichda bola maktab muhitiga moslashib, mas'uliyat, intizom va ijtimoiy faollik xislatlariga ega bo'lib boradi. Muhimi, unda milliy o'zlikka oid ilk tushunchalar paydo bo'ladi.

Bu borada jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar, amalga oshirilgan islohotlar hamon dolzarbligini yo'qotgan yo'q. Ular ta'lim millat taraqqiyotining asosiy omili ekanini anglagan holda yangi usul maktablari ochib, bolalarga zamonaviy ilm-fan bilan birga milliy ta'lim va milliy ruhini ham singdirishga qat'iy harakat qildi.

Abdulla Avloniyning fikricha, axloq, zehn va jismoniy kamolot uyg'un rivojlanishi uchun "tarbiyani tug'ilgan kundan boshlab lozim". Bugun milliy tarbiya modeli aynan shu tamoyilga suyanadi. Shunda bola bilimli bo'lish bilan birga yuksak tarbiya egasi va ma'naviyatli shaxs sifatida kamol topadi.

Maktab — millat taqdirini belgilaydigan muqaddas maskan, tafakkur bog'chasi. Millatni yuksaltiradigan yagona yo'l esa bilim va ma'rifatdir. Shu bois, bolaning fikrlash qobiliyatini erta rivojlantirish, mustaqil fikrlash va xulosa chiqarishga o'rgatish jadid bobolarimiz astoydil orzu qilgan ustuvor vazifa bo'lgan. Mazkur g'oyalar maktabgacha ta'lim mazmunini boyitishda hal qiluvchi metodologik asos sifatida e'tirof etilmoqda.

Bola dunyoni, avvalo, o'yin orqali ko'radi. Shu jihatdan maktabgacha ta'lim jarayonida turfa mavzudagi o'yinlar, savol-javob mashg'ulotlari, ijodiy topshiriqlar va guruh muhokamalaridan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega. Bu usullar bolada nafaqat bilim olish, balki fikrlash, mulohaza yuritish va o'z nuqtayi nazarini erkin ifoda etish ko'nikmasini ham tarbiyalaydi.

Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, maktabgacha ta'limda bolalarga vatanparvarlik va milliy g'urur g'oyalari jasorat va eziglik timsollari orqali



yeterli darajada keng. Masalan, "Ma'rifat qahramoni" yoki "Tafakkur bog'chasi" kabi demokratik tarbiya modellarini tatbiq etish bolalar qalbida milliy g'urur va ongli fuqarolik burchini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida "Kichik kengash" kabi hafalim muhokamalarini yo'lga qo'yish bolalarni erkin fikrlash va muloqotga chorlaydi. 10-15 daqiqalik samimiy suhbatlar tufayli

kechiktirib bo'lmaydigan zarurdir. Bu immunitet esa taqiy va cheklovlarisiz, mustahkam milliy asosga tayangan holda yuzaga keladi. Jadidlar merosi ana shunday asoslar bo'la oladi. Shu bois, jadidlar merosi asosida multfilm, audioertaklar, interaktiv o'yinlar va elektron resurslar yaratish juda foydali bo'ladi. Bularning barchasi to'g'ri yo'naltirilsa, bola tez qabul qiladi.

Ta'lim-tarbiya uyg'unlikda olib borilishi uchun oila va maktab hamkorligi eng muhim unsurlardan biri sanaladi. Ota-ona va tarbiyachi yagona maqsad yo'lida harakat qilsa, kutilgan natijaga erishiladi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham ota-onalar bilan ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar, ochiq mashg'ulotlar va qo'shma tadbirlarni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Bolalar tarbiyasida tarbiyachi shaxsi va kasbiy mahorati hal qiluvchi o'rin tutadi. Uning nutqi, kiyinishi, muomalasi va odobi bolalar uchun o'ziga xos bebaho saboq va yashirin darslikdir. Agar tarbiyachi milliy qadriyatlariga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lsa, bola ham shu ruhda tarbiyalanadi.

Agar bolaning murg'ak qalbida ilmga muhabbat, yurtga sadoqat va faol hayotiy tushuncha shakllansa, u ertaga mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan mas'uliyatli shaxs bo'lib voyaga yetishi shubhasiz. Shu nuqtayi nazaridan qaraganda, bugungi maktabgacha ta'lim tashkiloti ham bola qalbida ilk fuqarolik hissiyati uyg'otuvchi muhitga aylinishi zarur. Zero, bola "men shu yurtning farzandim" degan sodda, ammo ertaga ma'noga ega tuyg'uning ilk nishonalarni his etsin.

Abdurauf Fitrat tafakkurni rivojlantirishni millat taraqqiyotining bosh omili deb bildi, bolani tayyor qolipga solishni emas, balki uning qalbi va ongida mustaqil fikr uchunini yoqishga intildi. Chunki erkin fikrlaydigan avlodning yangi jamiyatni bunyod eta oladi. Shu bois, maktabgacha ta'lim ana shu g'oyalar asosida tashkil etilsa, tarbiya jarayoni o'zaro hurmat va hurmat tushunchalarini mustahkamlaydi. Bu fikri o'sib, dunyoqarashi tobora kengayib boradi.



Sherzod NE'MATOV,
Qarshi davlat texnika universiteti rektori

Astoydil harakat qilgan odam, albatta, ko'zlagan manzilga yetadi. Yoshlar bilan uchrashuv natijalarimizni sarhisob qilish va yangi reja-maqсадlarni belgilab olishimizga asos bo'ldi.

Mamlakatimizning yoshlarga oid siyosati, ertani o'yab ko'rilayotgan izchil chora-tadbirlar bugun samarasini bermog'da. Yoshlarimiz ko'rsatilgan g'amxo'rlik, imkoniyat va imtiyozlardan ruhlanib, o'ziga ishonchi ortyapti. Bugun yangilikka intiluvchan, bilimli, tashabbuskor yoshlarning yangi avlodi maydonga chiqqan. Shunga mos ravishda universitetimizda ham keng ko'lami ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, "Kelajakka qadam" dasturi orqali 166 talabning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida banklardan 6 milliard 405 million so'm miqdorida kredit



ajratildi. Bank imtiyozlari tadbirkorlikka qiziqadigan yoshlarning o'z biznesini yo'lga qo'yishi yoki oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda asosiy ko'makchiga aylandi.

Talabalarimiz muntazam ravishda "Mirzo Ulug'bek vorislari" va boshqa tanlovlarda g'oliblar safidan o'rin egallab kelmoqda. Joriy o'quv yilining o'zida 13 talabamiz O'zbekiston Prezidenti va boshqa nomdor stipendiyalar sohibi bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim haqidagi har bir mulohaza, fikr va taklif bu — millat kelajagi haqidagi g'amxo'rlik. Chunki bog'chada aytilgan har bir so'z, o'tkazilgan har bir mashg'ulot, berilgan har bir ibrat bola qalbida iz qoldiradi. U shu izlar asosida o'zini anglaydi, o'z yo'lini tanlaydi, o'z yurtiga munosabatini shakllantiradi.

Jadidlar uchun maktab kelajak ustaxonasi edi. Bugun maktabgacha ta'lim tashkilotlari ana shu ustaxonaning ilk pog'onasiga aylanishi kerak. Yuksak binolar mustahkam poydevorsiz barpo etilmaganidek, ma'naviy barkamol jamiyat ham yuksak tarbiyasiz va mustahkam bilimsiz rivoj topmaydi.

Talabalarimiz muntazam ravishda "Mirzo Ulug'bek vorislari" va boshqa tanlovlarda g'oliblar safidan o'rin egallab kelmoqda. Joriy o'quv yilining o'zida 13 talabamiz O'zbekiston Prezidenti va boshqa nomdor stipendiyalar sohibi bo'ldi.

Xalqaro hamkorlik borasida ham ishlarimiz ko'lami kengaymoqda. Hozir 2 ta qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha faoliyat yuritaymiz. 350 talabamiz "Ishla va sayohat qil (Work and travel)" dasturi asosida Germaniya va Bolgariyada pul to'lanadigan amaliyot jarayonlarida ishtirok etish uchun hujjat topshirgan. Ayni paytda 1000 dan ortiq talaba nemis tili kurslarida til o'rganmoqda. Shuningdek, 15 talaba grantlar asosida Yevropa Ittifoqining nufuzli universitetlariga stajirovka o'tash, qisqa va uzoq muddatli ta'lim dasturlari asosida tahsil olish uchun yuboriladi.

2025/2026-o'quv yilida universitetni 5408 bitiruvchi tamomlaydi. Ularning barchasini ish bilan ta'minlash chorasi ko'rilmog'da. Universitetimizga birlashtirilgan 10 dan ortiq korxonaga va tashkilot bilan hamkorlikda dual ta'lim yo'lga qo'yilmog'da. Talabalarimiz yangi bilim va hunarlarga o'rganish maqsadida Sun'iy intellekt, Bioenergetika, Kimyoviy texnologiya ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari hamda "Energo Control Lab" energiya audit markazi, Seysmologiya va qurilish ilmiy-tadqiqot institutini tashkil etishni maqsad qilganmiz.

Muhandis talabalarimiz xorijda oson ish topishi uchun, avvalo, ularga zamonga mos ta'lim berish, shuningdek, asosiy ta'lim yo'nalishlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish lozim. Bugungi kungacha universitetimizning 3 ta magistratura mutaxassisligi va 2 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi Germaniyaning ASIIN

xalqaro akkreditatsiya tashkilotida ro'yxatdan o'tkazildi. Bu nima beradi?

Ertaga talabaga diplomga qo'shib, xalqaro akkreditatsiya sertifikatini ham beramiz. Demak, bitiruvchining qo'lida universitet diplomi, muhandislikka oid xalqaro sertifikat, til bilish bo'yicha yana bir sertifikat bo'lsa, u ishsiz qolmaydi. Nafaqat O'zbekistonda, balki chet elda ham o'ziga munosib, sardaromad ishini oson topa oladi.

Bugungi kunda har bir universitet faoliyatini baholashda talabalar bandligini ta'minlashdagi ko'rsatkichiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu — katta mas'uliyat. Sababi, oliygohni tamomlayotgan talaba nafaqat bilim mutaxassis, balki hunarli bo'lishi ham lozim. Ana shunda uning ertaga ishli bo'lishi oson kechadi. Bilimi, hunari bormi, ishsiz qolmaydi.

Universitetimizning qurilish va arxitektura ta'lim yo'nalishida tahsil oladigan talabalaridan 776 nafari viloyatdagi 99 ta mahallaning bosh rejasini ishlab chiqishga jalb etildi. Ularning amaliy mashg'ulotlari ham ana shu hududlarda tashkil qilinmoqda. Bu bilan mahorati yuksalib, tajribasi ortadi. Yangi g'oyalar, loyihalar uchun zamin yaratiladi.

Kitobxonlikni kuchaytirish maqsadida universitetimizda "Bir oyda bir kitob", "Asardan iqtibos" kabi tanlovlar yo'lga qo'yildi. Professor-o'qituvchilarimiz tomonidan mahallalardagi yoshlarga kitoblar sovg'a qilindi. Ma'naviyat hamisha ustuvor masala hisoblanadi, chunki mutaxassisning bilimi, hunari, diplomi bo'lsa-yu, ma'naviyati bo'lmasa, u yetuk kadr emas. Insonning, birinchi navbatda, ma'naviyati shakllangan bo'lishi lozim. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, badiiy asarlar bilan bog'liq tanlovlar talabalarimizni kitobga oshno qildi.

Prezidentimizning yoshlar bilan muloqotida talabalarning sport sohasidagi iqtidorini aniqlash, ularni xalqaro musobaqalarga tayyorlash, malakali

murabbiylar qo'l ostida shug'ullanishini ta'minlash masalasida ham muhim tashabbuslar ilgari surildi. Shu maqsadda sport federatsiyalari bilan amaliy hamkorlik o'rnatilmoqda. Shaxmat bo'yicha viloyat chempioni va bir necha turnirlar g'olibasi Feruza Qurbonovaning xalqaro musobaqalarda ishtirok etishiga yordam ko'rsatiladi.

Shu o'rinda yoshlarga aytar so'zimiz bor: bilim olishga mas'uliyat bilan yondashgan. Har bir dars, har bir laboratoriya mashg'uloti, har bir amaliy topshiriq kelajagingiz uchun poydevordir. Innovatsion fikrlashni rivojlantirish, Startap loyihalar, ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlanmalarda faol ishtirok eting. Til o'rganish va raqamli ko'nikmalarni oshirib boring. Bular xalqaro maydonda raqobat qila olish uchun talab emas, balki zarurdir.

Hozir universitetimizda 22 mingga yaqin talaba tahsil olmoqda. Iqtidorli yoshlarimiz tomonidan 60 dan ortiq startap loyiha yaratilib, ulardan 10 ga yaqini amaliyotga tavsiya qilindi. Ushbu startaplar, asosan, mahallalar va hududiy korxonalaridagi muammolar yechimiga qaratilayotgani bilan ahamiyatli.

Talaba yoshlarning innovatsion loyihalarini va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida universitetimizda zamonaviy ekotizim yaratildi. Ya'ni Muhandislik ilmiy-ishlab chiqarish markazi (Fab-lab) ishga tushirilmoqda. Markaz ularni 10 dan ortiq kasbga o'rgatish, 150 dan ortiq yoshning bandligini ta'minlash, startaplarning "g'oyadan mahsulotgacha" tamoyilini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan ishonch katta sharaflar va ulkan mas'uliyatdir. Bu ishonchni amaliy natijalar, yangi yutuqlar va yuksak marralar bilan oqlashga harakat qilamiz. Aminmanki, universitetimiz talabalar nafaqat Qashqadaryo viloyati, balki butun mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan yetuk mutaxassis bo'lib yetishadi.

Zulfiyaxonim izdoshlari


YURT SHARAFINI YUKSALTIRAYOTGAN
NAFOSAT SOHIBALARI

Atoqli o'zbek shoirasi va jamoat arbobi Zulfiya Isroilova nomi bilan atalgan davlat mukofoti yillar davomida fan, ta'lim, adabiyot, madaniyat, san'at, sport, jamoatchilik faoliyati va axborot texnologiyalari kabi qator yo'nalishlarda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yuzlab iqtidorli va tashabbuskor qizlarni kashf etib, yutuqlarini keng jamoatchilikka tanitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

axborot texnologiyalari alohida, sakkizinchi yo'nalish sifatida kiritildi.

Ta'xis etilganidan buyon 500 dan ziyod iqtidorli qiz ushbu davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Bu yurtimizda iste'dodli, bilimli, tashabbuskor va faol qizlar soni yil sayin ortib borayotganining yorqin dalilidir.

Joriy yil 6-mart kuni xotin-qizlar bayrami munosabati bilan o'tkazilgan tantanali tadbirda davlatimiz rahbari 28 nafar iqtidorli xotin-qizni Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirledi. Davlat rahbari qo'ldan ushbu nufuzli mukofotni qabul qilib olgan xotin-qizlarning qalbidan kechgan his-tuyg'ulari haqida bilish maqsadida ular bilan davra suhbatini uyushtirdik.



Saodatga eltuvchi ilm

Latofat AMIROVA,
erkin ijodkor, shoir

Hayot sinov va qiyinchiliklari bilan totidi. Sinovlar bizni o'stirib, yuksak maralarga yetaklashi esa haqiqat ekan. Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi chekka bir qishloqda ulg'aydim. Maktabda o'qib yurgan kezarimdan adabiyotga ixlosim baland edi. Kollejda o'qigan yillarimda Ozod Sharafiddinovning "Dovondagi o'ylar" asari meni adabiyotga butkul oshufta qildi.

Orzum poytaxtda o'qish edi, ammo oilaviy sharoit sabab niyatim amalga oshmadim. Bu orada turmushga chiqdim. Biroq kitob mutolaasidan hech qachon voz kechmadim. Ro'zg'or tashvishlari, kelinlik vazifalari, keyinchalik farzand tarbiyasi bilan band bo'lsamda, tularimni dars qilish va o'z ustimda ishlashga bag'ishladim.

Ha, hayotimda sinovlar ko'p bo'ldi. Turmush o'rtog'im va farzandim epilepsiya xastaligi bilan og'riydi. Bu bosh miya bilan bog'liq kasallik bo'lib, insonda takror-takror tutanoq xurujlarini keltirib chiqaradi. Turmushning og'ir zarbariga chidash uchun o'zimdagi kuch topa olgan ayolman. Davlatimiz tomonidan ayollar uchun yaratilayotgan sharoitlar esa qaddimni tik tutib, qadri bo'lib yashashimga yo'l ochmoqda.

Hayot sinovlarini mehnat, o'qish va izlanish bilan yengishga harakat qilyapman. Chunki oilamga tirg'ak, farzandlarimga suvanch bo'lishim shart, bu insoniy burchim. Bo'sh vaqtimda, asosan, tularni kitob o'qib, ijod qilaman. Hayotimda qanday qiyin sharoit va mashaqqat bo'lmasin, baribir o'qiymen. Chunki faqat ilm insonni qutqaradi, yorug'likka, farovon va saodatli hayotga boshlaydi.

To'g'ri, ko'p qarshiliklar bo'ldi, lekin maqsadimdan qaytmadim. Yig'lab-yig'lab dars qilib uxlab qolgan tularim ko'p bo'lgan. Ammo bu mehnatlarim zoye ketmadi, bugun yuzim yorug'. "Kitob o'qib kim ham bo'larding" deganlar esa mulzam...



Aytmoqchiman, kitob va ilm insonni doimo yaxshilik va ezgulikka boshlaydi. Buni Prezidentimiz tomonidan menga bildirilgan ulkan ishonchda yana bir bor angladim. Men nafaqat davlat mukofotini oldim, balki o'sha baxtli kunda uyli ham bo'ldim. Eng muhimi, hammasini uddalay olishimga bo'lgan ishonchim yanada mustahkamlandi.

Shu munosabat bilan bayram tantanasida, o'sha baxtiyor lahzada davlatimiz rahbariga aya olmagun so'zlarimni "Yangi O'zbekiston" gazetasi sahifalari orqali yetkazmoqchiman:

"Prezidentim, sizga cheksiz rahmat. Siz hayotimni nur va quvonchga to'ldirdingiz. Yanada kuchliroq bo'lib yashashim uchun rag'bat va ishonch berdingiz. Men bu mukofotni olishimga, ochig'ini, aslo ishonmagan edim. Mukofot bilan birga uy sovg'a qilganingiz tirab turgan yuragimga malham bo'ldi. Kuni kecha ikki xonali uy kalitini qo'limga topshirishganida, mehnatim va ijodim bekorga emasligini yana bir bor angladim. Siz men va oilam uchun go'zal hayot eishigini yanada keng ochib berdingiz. Aziz boshingiz hamisha omon bo'lsin!"

Bu ishtiyoq katta marralar sari yo'l ochadi

Dilafro'xon SOBIROVA,
Farg'ona shahridagi Prezident maktabining 11-sinf o'quvchisi

Joriy yilning 6-mart sanasi eng omadli va quvonchli kunlarimdan biri bo'lib qoldi. Ko'ksaroy qarorgohida bo'lib o'tgan taqdirlash jarayonida davlatimiz rahbari qo'ldan Zulfiya nomidagi davlat mukofotini qabul qilib oldim.

Ushbu uchrashuv, u yerda aytilgan samimiy so'zlar va e'tiroflar barcha qizlar qatori mening ham qalbmida o'chmas iz qoldirdi. Hali-hamon ko'z oldimda: ismim yangragani, sahna tomon sekin qadam tashlab borayotganim, ammo ichimdan shoshilib, hayajondan yuragim tez urgani... bu holat hech yodimdan chiqmasa kerak.

Prezidentimiz mukofotni taqib, biz, yoshlarning yutuqlarimizdan mamnunligini aytdi. Men benihoya xursand bo'ldim. Rahmat aytib, joyimga qaytayotganimda Prezidentimiz auditoriyaga qarab: "Garvardlik qizim bu", deya ta'kidladi. O'sha lahzada ko'nglimda shunday ajoyib hislar jo'sh urdiki, ularni so'z bilan ifoda etish qiyin. Bu faqat quvonch emas, ishonch, mas'uliyat va tuganmas ilhom edi.

Davlatimizning men kabi oddiy bir qizga ko'rsatgan bunday e'tibori va e'tirofi yuragimda ilgari hech his qilmagan quvonch, zavq-shavqni uyg'otdi. Ishonamanki, bu ishtiyoq kelgusi faoliyatimda yanada katta marralarni zabt etishimga katta turki bo'ladi.



O'sha kuni zalda onam ham o'tirgan edi. Rostini aytsam, hayajondan uning yuziga qarashga jur'at qilolmadim. Ammo meni dunyoga keltirgan, tarbiyalab voyaga yetkazgan va hammadan ko'p yaxshi ko'radigan validamni bir oz bo'lsa-da quvontira olganim uchun o'sha kez o'zimni juda baxtli his qildim. Albatta, bu mukofotgacha bo'lgan yo'limga ko'plab insonlarning hissasi bor.



Indira SATNIYAZOVA,
Qoraqalpog' davlat universitetining 3-bosqich talabasi

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxon: (71) 233-56-33 Devonxon va e'lonlar: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-246.
31346 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-246.
31346 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Boboravshan G'oziddinov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Hayotning go'zal va unutilmas lahzasi

Nodira IBRAGIMOVA,
Toshkent shahridagi "Shkola 21" nodavlat ta'lim muassasasi loyiha rahbari

Surxondaryo viloyatining Sariosiy tumanidagi chekka bir qishloqda tug'ilganimga qaramay, yurtimizda yaratilayotgan cheksiz imkoniyatlar tufayli dunyoning eng nufuzli universitetlarida tahsil olish imkoniga ega bo'ldim. Qariyb o'n yildan buyon axborot texnologiyalari sohasida ilmiy izlanishlar olib boryapman. Bugungi kunda besh tilda erkin muloqot qila olaman.

Hozir Yangi O'zbekiston universiteti magistraturasida tahsil olayman. Men o'qiyotgan yo'nalish Germaniya bilan hamkorlikda yo'lga qo'yilgan bo'lib, darslar yuqori malakali professorlar tomonidan o'tiladi. Eng muhimi, mamlakatimizda ayollar ta'limini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan e'tibor tufayli kontrakt to'lovim to'liq davlat tomonidan qoplanmoqda.

Bugungi kungacha AQSH, Malayziya, Marokash, Janubiy Koreya, Kamerun hamda bir qator Yevropa va MDH mamlakatlarida tajriba o'ttirib, xalqaro texnologik loyihalarda ishtirok etdim. Bir necha bor Google va Amazon kompaniyalaridan ishlash taklifini oldim. Polshada o'tkazilgan yirik axborot texnologiyalari sammitida O'zbekistondan ishtirok etgan ilk qiz sifatida qatnashib, 10 ming kishilik auditoriya oldida yurtimizdagi jadal islohotlar va imkoniyatlar haqida nutq so'zlash nasib etdi.

Shifokorlar oilasida ulg'ayganim bois, sog'liqni saqlash sohasiga qiziqishim tibbiyotni sun'iy intellekt bilan bog'lashga undadi. Chikagoning nufuzli kompaniyasida AQSH bo'ylab yuzdan ortiq shifoxona



ma'lumotlarini tahlil qilish bo'yicha tajriba o'ttirdim.

Hozir Kamerunning Yaunde shahrida biologlar jamoasi bilan birgalikda bezgak va tif kasalliklarini sun'iy intellekt orqali mikroskopik qon tahlillari asosida aniqlashga qaratilgan loyihada ishtirok etmoqdaman. Bu loyihada faoliyat yuritayotgan ilk o'zbek qizlaridan biri ekanim men uchun katta sharaf.

Izlanishlarimning barchasi yurtimizda xotin-qizlarga qaratilayotgan yuksak e'tibor va yaratilayotgan imkoniyatlarning amaliy natijasidir. Kelajakdagi asosiy maqsadim sun'iy intellekt va tibbiyotni uyg'unlashtirgan holda erta diagnostika modellari ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotlar qilishdir. Buning uchun bilimimni dunyoning yetakchi universitetlarida yanada boyitib, ularni yurtim bilan hamkorlikka jalb qilishni rejalashtirganman.

Zulfiya nomidagi davlat mukofotini davlatimiz rahbari qo'ldan qabul qilib olganim men uchun katta faxr va sharafdur. Prezidentimizning samimiy so'zlari kelajakdagi maqsadlarimga uchqur qanot bag'ishlab, ongimga ruhiy kuch, hayotimga go'zal va unutilmas sahifa qo'shdi.

Muvaffaqiyat siri mehnatda ekan

Taqdirlash marosimidagi har bir lahza men uchun unutilmas xotira bo'lib qoldi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining: "Qoraqalpog'istonda senday matematik qizim borligidan faxrlanaman" degan so'zlari o'qish va izlanishlarimga katta ishtiyoq berdi. Shu bilan birga, yelkamga mas'uliyat ham yukladi. Men endi bu ishonchni oqlashim kerak. Onam matematika o'qituvchisi bo'lgani sababli bolaligimdan uyimizda doimo matematik muhit hukm surgan. Opam bilan birga masalalar yechar, onamga o'quvchilarning yozma ishlarni tekshirishda yordam berardik. Keyinchalik yuqori sinflarga o'tganimda fan

olimpiadalarida ishtirok eta boshladim va qator yutuqlarga erishdim.

Biroq men uchun bir to'siq bor edi — xorijiy tillarni bilmaslik. Rus tilidagi masalalarni yechishda rahmatli bobom tarjima qilib yordam bergan. Lekin 9-11-sinf olimpiadalarida qatnashganimga angladimki, ingliz tilini bilmasdan turib, xalqaro matematika olimpiadalarini uchun zarur bo'lgan kombinatorika va sonlar nazariyasi kabi yo'nalishlarni chuqur o'rganish qiyin. Shu sababli vaqtimning katta qismini ingliz tilini o'rganishga bag'ishladim. Bu mehnat keyinchalik

talabalik davrimdagi muvaffaqiyatlarimga ham katta yordam berdi.

Kelajakda matematika sohasida fundamental tadqiqotlar olib borib, yangi natijalarga erishadigan olim bo'lishni orzu qilaman. Bakalavr diplomini olgach, matematika yo'nalishlaridan birini tanlab, magistraturada tahsil olishni rejalashtirganman.

Aniq maqsadga hech narsa to'siq bo'la olmaydi



Vazira FAYZULLAYEVA,
Buxoro davlat tibbiyot institutining 1-bosqich magistranti

Bolaligimda buvim o'zi ishlaydigan shifoxonaga olib borsa, ishlarni kuzatib turishni yoqtirardim. Shifokor buvimning o'g'itlari, tavsiyalari va oq xalatiga bo'lgan sadoqati meni shu sohaga yetaklagan. Buvim nafaqaga chiqqanida ham ota-onalar betob bo'lib qolgan farzandlarini uyimizga olib kelardi. Ko'zlari to'la umid bilan kelgan bu insonlar minnatdorlik hissi bilan uyimizdan chiqib ketayotganini ko'rib, buvimning kasbi naqadar e'zozli ekanini anglaganman.

Avval Buxoro davlat tibbiyot instituti bakalavriyat bosqichida pediatriya yo'nalishini tamomladim, so'ng magistratura bosqichida otorinolaringologiya mutaxassisligini tanladim. 2025-yilda "Allergik rinitni jigaranda surunkali diffuz kasalliklari bilan kechganda davolash taktikasi" mavzusidagi monografiyam, bir necha o'quv-uslubiy qo'llanmalarim chop etildi. Joriy

yilda esa "Sog'lom mittivoy" nomli mobil ilovam Intellektual mulk agentligi tomonidan patentlandi. Ilova orqali onalar 6 oylik farzandlarini qo'shimcha oziqlantirish bo'yicha maslahatlar oladi. Qaysi mahsulotlarni, qanday miqdorda, qachon berish kerak, bulaming barchasini undan bilish mumkin.

Shuningdek, "Surunkali piyelonefrit bilan kasallangan bolalarda o'tkir o'tining otorinolaringologik holatini baholash" dasturiy ta'minoti uchun ham patentga ega bo'ldim. Bundan tashqari, AQSH, Rossiya, Germaniya, Sloveniya, Qozog'istonda o'tkazilgan xalqaro anjumanlarda o'z ma'ruza va maqolalarim bilan ishtirok etganman. Bir qancha ilmiy maqolalarim yurtim ilmiy jurnallarida, shuningdek, "Scopus" ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasida indekslangan xalqaro ilmiy-elektron jurnalda chop etilgan.

Hayotdagi shiorim — "Maqsadlarga erishish uchun hech narsa to'siq bo'la olmaydi". Buni o'z amaliyotimda ham isbotladim.

Farzandli bo'lgan kezarimda turmush tashvishlari va bola parvarishi bilan birgalikda mustaqil ravishda ingliz tilini o'zlashtirib, imtihon topshirdim va o'zim istagan natija — IELTSda 7,5 ball olishga erishdim. Yoshlar uchun 10 ta moduldan iborat zamonaviy trening dasturini ishlab chiqdim. Hozir uni ta'lim tizimiga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyanoma tayyorlayapman.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Gulichehra DURDIYEVA
tayyorladi.